**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*

*UDK ( 371.927 )*

**Mahmudova Madina Sobirxonovnaning**

# « Kichik maktab yoshidagi bolalar yozuvidagi optik va motor kamchiliklarni bartaraf etish »

**Mutaxassislik:** *5A 111901 – Logopediya*

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

| | |
|---|---|
| Himoya qilishga ruxsat | “Korreksion pedagogika ” |
| Magistratura bo‘limi boshlig‘i | kafedrasi mudiri, p.f.n.,v/b dots |
| _____________M.Esanov | ____________ SH.Amirsaidova |
| 2014 y «____»iyun | Ilmiy rahbar: p.f.n., prof. |
| | _____________ M.Y.Ayupova |

**Toshkent-2014 yil**

MUNDARIJA

**KIRISH**……………………………………………………………………3

**I BOB. MUAMMONI O‘RGANISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI** ……………………………………………………………. 12

**1.** Yozuvning psixofiziologik tuzilishi va uning o‘ziga xos buzilishlari…. ... 12

**2.** Yozuv buzilishlari simptomatikasi……………………………........19

I Bob bo‘yicha xulosa………………………………………………………28

**II BOB. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA GRAFIK FAOLIYAT VA UNDA ISHTIROK ETUVCHI OLIY PSIXIK FUNKSIYALARNI TADQIQ QILISH**…………………………………...30

**1.** Ta’kidlovchi eksperiment maqsadi, vazifalari va tashkil etilishi……….....30

**2.** Eksperimental tadqiqot yo‘nalishlari…………………………………......31

II Bob bo‘yicha xulosa……………………………………………………….38

**III BOB. KICHIK MAKTAB O‘QUVCHILARIDA OPTIK VA MOTOR YOZUV KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHDA KORREKSION ISH**…………………………………………………………….39

**1.** O‘ziga xos yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilarni tadqiq qilish natijalari……………………………………………………………………39

**2.** Yozuv ko‘nikmalarini egallashni ta’minlovchi oliy psixik funksiyalarni tadqiq qilish natijalari…………………………………………………………… 51

**3.** Korreksion ish yo‘nalishi, mazmuni va usullari……………………….....63

III Bob bo‘yicha.............................................................................................78

**XULOSA**…………………………………………………………………….81

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**……………………….82

**ILOVALAR**……………………………………………………………….. 89

## KIRISH

Davlatimiz rahbari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda 2014 yil mamlakatimizda “Sog‘lom bola yili” deb e’lon qilinishi barcha yurtdoshlarimizga mamnuniyat ulashdi. Bunday oqilona qaorga kelinishi mustahkam asoslarga ega. Boisi, mustaqillikning dastlabki yillaridan yurtimizda “sog‘lom ona – sog‘lom bola” masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Farzandlarimizning hech kimdan kam bo‘lmay ta’lim-tarbiya olishlari, o‘z bilim va iqtidorlarini namoyon qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Natijada bugungi yosh avlod o‘zining ham jismoniy, ham intellektual salohiyatini ishga solib, nufuzli olimpiadalarda, musobaqa va tanlovlarda zafar qozonyapti, yuksak marralarni zabt etyapti.

Ortda qogan yillar “Oila yili”, “Ayollar yili”, “Sog‘lom avlod yili”, “Yoshlar yili” kabi nomlar bilan ataldi va buning zamirida, eng avvalo, inson manfaatlari ko‘zlandi. Zero, xalqimiz hayoti farovonlashib, oilalarimizga tinchlik, topganlarimizga baraka, ko‘ngillarimizga hotirjamlik inmoqda. Xossatan, yakunlangan Obod turmush yilida turmushimiz ikki hissa obodlashgani ham ayni haqiqat. Bunga yurtdoshlarimiz daromadlari bir yil ichida 15,7 foizga, ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar 20,8 foizga o‘sganida ishonch hosil qilishimiz mumkin.

2014 yilning “Sog‘lom bola yili” deb nomlanishida katta mazmun-mohiyat, mas’uliyat borligini yurtdoshlarimiz yurakdan his qilmoqdalar.

Kuni kecha Yurtboshimiz O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Yangi yil tabrigida bu jihatga alohida to‘xtalib o‘tdi: “... Hammamiz yaxshi tushunamizki, faqatgina jismoniy va ma’naviy yetuk, zamonaviy bilimga, o‘z fikr va qarashlarga ega bo‘lgan, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yangi avlodimizni kamol toptirish – biz ko‘zlagan obod va farovon hayot barpo etishning asosiy garovi va aytish mumkinki, hal qiluvchi sharti bo‘lib maydonga chiqmoqda. Ayni shu haqiqatni chuquranglab, “Sog‘lom bola yili” deb nom olgan 2014 yilda va kelgusida ham bu masala, bu vazifa ham davlatimiz,

ham jamiyatimiz, barcha-barchamizning doimo e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim".[1]

Dasturda har tomonlama barkamol yosh avlodni shakllantirishni ta'minlash bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari hamda boshqa tadbirlarga muvofiq amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni davom ettirish bilan bir qatorda ustuvor yo'nalishlar bo'yicha eng muhim vazifalarni hal etish nazarda tutilgan

Shu o'rinda alohida qayd etish zarurki, yurtimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, voyaga yetkazish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilyapti.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2008 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Milliy dastur zamon talablariga javob beraigan kadrlarni tayyorlash va o'quv muassasalarining moddiy bazasini mustahkamlash kabi masalalarga katta e'tibor berilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 23-moddasida "Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi"[2] deyilishining o'zi ham jamiyatimizning g'oyatda insonparvarligidan dalolatdir.

Insoning mukammal, yetuk shaxs bo'lib shakllanishida nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Bola nutqining shakllanishi uni atrof-muhit bilan yaqindan tanishishiga asos bo'ladi. Nutq madaniyatini egallash orqali madaniyatni egallashga qadam tashlandi. Insoniyat umummadaniyatning tarkibiy qismini nutq madaniyati tashkil etadi. Madaniyat nutqning fazilatlari deyilganda, uning to'g'riligi, aniqligi, mantiqligi, boyligi kabilar tushuniladi.

---

[1]Moxiyat gazetasi.3 yanvar 2014 [1]

[2] O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent, 1997. 26-bet.

Nutq murakkb psixik jarayon. U aloqa bog‘lash va fikr yuritish vazifalarni bajaradi. Nutq ichki va tashqi nutqqa bo‘linadi.Tashqi nutqni dialogik va monologik nutqlar tashkil etsa , yozma nutqni o‘qish va yozish jarayonlari tashkil etadi. Bola bilim olishi, uning shaxsini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlari asosida tarbiyalash barkamol avlodni voyaga yetkazishda kasb –hunarni o‘zlashtirishi uchun uning nutqi xar tamonlama rivojlangan bo‘lishi lozim. To‘liq, har tamonlama rivojlangan og‘zaki nutq negizida yozma nutq , ya’ni o‘qish va yozish malakalari maxsus tashkil etilgan ishlar orqali shakllantiriladi.

Bolaning og‘zaki nutqi qanchalik yaxshi bo‘lsa, yaxshi gapirsa ta’lim jarayonida shunchalik to‘g‘ri , xatosiz o‘qiydi va yozadi.O‘qishga o‘rgatish ishlari bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirish , ko‘rish, eshtish qobilyatini rivojlantirish , bolaning fazoviy idrokini oshiriish , barcha psixik jarayonlar diqqat , tafakkur . idrok,xotira nutq , his –tuyg‘ular , xissiyot, analiz sintez qilish malakalarini tarkib toptirishga qaratiladi.

Yozma nutq kamchiliklarini moxiyati va mexanizimi nutq faoliyatini buzilishlarga qaratilgan ishlar rus olimlari N.I.Nikashina ,A.R.Luriya, L.F.Spirova,R.Boskis R.I.Lalayevalarning ilmiy tadqiqot ishlarida berilgan. O‘zbekistonda Axmedova .Z. “Umumta’lim maktab o‘quvchilarida disgrafiyani bartarf etishda logopedik ish tizimi”ni ochib berdi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozma nutk buzilishlarini korreksion logopedik ish asosida bartaraf etish bo‘yicha o‘zbek tilida ilmiy tadqiqot ishlarini yetarli darajada olib borilmaganligi va ukuv –uslubiy kullanmalarni tankisligi tadqiqot ishimizning dolzarbligini bildiradi.

**Dissertatsiyaning ishlanganlik darajasi** Yozma nutq buzilishlari umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ichida ancha keng tarqalgan nutq buzilishlari shakli hisoblanadi va olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra 10-30% gacha o‘zlashtira olmaslikning sababi bo‘ladi. (M.M.Bezrukix, M.S.Grushevskaya, A.N.Kornev, R.I.Lalayeva, YE.A.Loginova, A.G.Paramonova, I.N.Sadovnikova va boshq.).

Yozuvning buzilishi ona tili bo‘yicha o‘quv dasturini o‘zlashtirishga to‘sqinlik qiladi va ta’lim olishdagi turg‘un qiyinchiliklarga olib keladi.

(O.B.Inshakova, R.YE.Levina, N.A.Nikashina, L.F.Spirova, O.A.Tokareva, A.V.Yastrebova va boshqalar).

Bu muammoni o‘rganishga ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlari bag‘ishlangan. Yozuv buzilishi haqidagi zamonaviy bilimlar asosan R.YE.Levina, A.R.Luriya, N.A.Nikashina, L.F.Spirova kabi olimlarning g‘oyalari bilan bog‘liq.

Rus adabiyotlarida yozma nutq buzilishlari eng avvalo og‘zaki nutqning tizimli buzilishi oqibati, shuningdek, nutqning fonetiko-fonematik va leksik-grammatik qurilishining shakllanishini buzilishi sifatida qaraladi. (G.A.Kashe, I.K.Kayepovskaya, R.YE.Levina, N.A.Nikashina, L.F.Spirova, G.V.Chirkina va boshqalar).

So‘nggi yillardagi tadqiqotlar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni yozuv ko‘nikmalarini egallashdagi qiyinchiliklar nafaqat nutqning rivojlanmaganligi, balki yozuv jarayonini amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi qator gnostik va motor funksiyalarning shakllanmaganligi bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi (N.N.Voloskova, I.D.Yelilyanova, O.B.Inshakova, A.N.Kornev, R.I.Lalayeva, N.L.Nemsova, I.N.Sadovnikova, L.S.Svetkova va boshqalar). Olimlarning fikricha, umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yozma ishlarida ko‘p uchraydigan yozuvning optik va motor buzilishlarini paydo bo‘lishi aynan shu qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Optik va motor xatoliklar turg‘unligi bolalarda to‘laqonli yozuv ko‘nikmalarini egallashga to‘sqinlik qilishi bilan farqlanadi. Shunga ko‘ra, zamonaviy logopediyada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar yozuvidagi optik va motor buzilishlarni korreksiyalash usullari va metodlarini takomillashtirish muammo dolzarbligicha qolmoqda. O.I.Galkina, YE.V.Guryanova, A.R.Luriya, T.S.Komarovalarning tadqiqot ishlari birinchi yozuv mashqlarining muvaffaqiyatini bolalarda mavjud grafik malakalarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. YE.Ignatyeva, N.P.Sakulina, YE.YE.Rojkova va boshqalarning ishlarida yozuv texnikasini egallash rasm chizish texnikasining shakllanganlik darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda Axmedova .Z. “Umumta’lim maktab o‘quvchilarida disgrafiyani bartarf etishda logopedik ish tizimi”ni ochib berdi. Ammo o‘zbek tili til xususisiyatlarini xisobga olgan xolda optik va motor

buzilishlariga ega kichik maktab o‘quvchilarida yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirish, ish mazmuni va usullarini ishlab chiqish muammosi hozirgi kungacha ilgari surilmagan. Bu muammoning yetarlicha ilmiy jihatdan o‘rganilmaganligi va dolzarbligi uni o‘rganish zarurligini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Optik va motor yozuv buzilishlariga ega boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining grafik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va uni bararaf etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti:** optik va motor yozuv buzilishlariga ega boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida grafik va uning psixofiziologik asosini ta’minlovchi faoliyat holati.

**Tadqiqotning predmeti:** o‘quvchilarida optik va motor yozuv buzilishlarini bartaraf etish jarayoni.

**Tadqiqot farazi:**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida opik va motor yozuv buzilishlarini bartaraf etish va oldini olishi mumkin:

agar:

— Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida optik va motor yozuv buzilishlarini bararaf etish uchun korreksion-logopedik ish tizimi tashkil etilsa;

— mazkur logopedik ish tizimi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ularning o‘qituvchilari bilan muntazam va tizimli-izchil sur’atda olib borilsa;

— ko‘ruv-gnostik, ko‘ruv-fazoviy, motor, ko‘rgazmali motor komponentlarning shakllantirish,rivojlantirish bo‘yicha korreksion ishlarning mazmuni,samarali usullari aniqlanib,amaliyotga keng joriy etilsa;

— umumta’lim maktablarida korreksion ishlarni o‘tkazish uchun zarur maxsus sharoitlar yaratilib, bolalar korreksiya jarayonining subyektiga ya’ni faol ishtirokchisiga aylantirilsa,logopedik amaliyotda korreksion ishlarning

— samaradorligi yanada ortadi deb faraz qilamiz.

**Tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan:**

1) umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida optik va motor yozuv buzilishlari xarakteri va tarqalganligini o‘rganish;

2) optik va motor yozuv buzilishlariga ega kichik maktab o‘quvchilarida grafik faoliyatning o‘ziga xosligini ko‘rsatish;

3) optik va motor yozuv buzilishlariga ega kichik maktab o‘quvchilarida yozuv hususiyatlarini grafik faoliyat turi sifatida tahlil qilish;

4) optik va motor yozuv buzilishlariga ega kichik maktab o‘quvchilaridagi bunday kamchiliklarini bartaraf etish bo‘yicha korreksion ishlar mazmuni va usullarini aniqlash.

Qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun turli xil **tadqiqot metodlaridan** foydalanildi:

- nazariy (umumiy va maxsus pedagogik, psixologik, neyropsixologik, klinik adabiyotlarni tadqiqot muammosi bo‘yicha tahlil qilish);
- emperik (suhbat; kuzatish; bolalarning tibbiy-pedagogik xujjatlarini o‘rganish; o‘quv faoliyati maxsulini tahlil qilish, ta’kidlovchi eksperimentlari);
- statistik metod.

**Tadqiqotning metodologik asosi.**

O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, Respublika Prezidenti I.A.Karimov asarlari, Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangan siyosat, «Ta’lim to‘g‘risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunlar, nerv sistemasining egiluvchanligi haqidagi fiziologik konsepsiya (I.P.Pavlov), nutq va tafakkurning birligi haqidagi psixik-lingvistik konsepsiya, meyorida va anomal rivojlanish qonuniyatlarining birligi haqidagi fundamental qarashlar (L.S.Vigotskiy), o‘zbek pedagog va defektolog-olimlarining yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, nutqiy kamolotiga oid qarashlari hamda mavzuga dahldor ilmiy-nazariy asarlari tashkil etadi.

**Tadqiqotni tashkil etish:** tadqiqot 2012-2014 yillar davomida Toshkent shaxri Olmazor tumanidagi №111 va №28 umumta'lim maktablarida olib borildi.

**Tadqiqot bosqichlari:**

1-bosqich. Tadqiqotning birinchi bosqichi (2012-2013 yillar) tadqiqot muammosiga doir vatandosh va chet el olimlari ishlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Tadqiqot predmeti, farazi vazifalari, eksperimental ish rejalari aniqlandi va belgilandi.

2-bosqich. (2013-2014) – optik va motor yozuv buzilishlariga ega va yozuv buzilishlariga ega bo'lmagan sog'lom tengdoshlari bilan grafik faoliyat va uni ta'minlovchi oliy psixik funksiyalar holatini aniqlashga yo'naltirilgan ta'sidlovchi eksperiment o'tkazish.

3-bosqich. (2013-2014) – optik va motor yozuv buzilishlariga ega boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kamchiliklarni bartaraf etishning maxsus yo'nalishlari, tuzatish usullari va mazunini aniqlash.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

– Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarida optik va motor yozuv buzilishlarining tarqalganligi haqidagi ma'lumotlarning aniqlanishi;

– kichik maktab o'quvchilarida optik va motor yozuv buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha korreksion ishlar mazmuni va usullari, yo'nalishlari ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning nazariy ahamiyati:**

– Kichik maktab o'quvchilarida optik va motor yozuv buzilishlari patogenezi haqidagi nazariy tasavvurlarni kengaytirishi;

– Optik va motor yozuv kamchiliklariga ega boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozuvni grafik faoliyat sifatida yetarlicha shakllanmaganligi ko'rsatkichlari aniqlandi;

– Optik va motor yozuv buzilishlariga ega kichik maktab o'quvchilariga grafik faoliyat sifatida yozuv buzilishlarini takomillashtirilganligi o'rtasidagi o'zaro aloqani aniqlanishi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati:**

Kichik maktab o‘quvchilarida yozuvning optik va motor buzilishlarini bartaraf etishga qaratilgan korreksion ish usullari va mazmuni yo‘nalishlarini amalda qo‘llash va ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning nazariy holatini hisobga olish optik va motor yozuv buzilishlariga ega boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlash samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalaridan umumta’lim maktablari o‘qituvchi logopedlar, maktabgacha ta’lim muassasalaridan bolalarda optik va motor yozuv buzilishlarini oldini olishni amaliyotida foydalanishlari mumkin. Tadqiqot oliy ta’lim va pedagogik kadrlarni malakasini oshirish tizimida kasbiy maxoratni oshishiga katta xissa qo‘shadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asoslanganligi.**

Tadqiqotning metodik asoslanganligi; logopediyaning umumpedagogik va metologik tamoyillariga asoslanganligi; tadqiqot ishining predmeti, maqsad va vazifalariga mos metodlaridan foydalanganligi; tadqiqot eksperimentida tadqiqotchining shaxsan ishtirok etishi va dinamik xarakterini o‘rganishi; eksperiment materiallarini sonli va sifatli tahlili va olingan natijalarni statistik tahlilini ta’minlaydi.

**Himoyaga olib chiqadigan holatlar:**

1. Optik va motor yozuv buzilishlariga ega boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yozma ishlarida grafik obraz xatoliklari, grafik obyektlarning fazoviy xarakterini farqlashdagi yetishmovchiliklar, ular o‘rtasidagi fazoviy munosabatlarni o‘rnatishdagi kamchiliklar, grafik shakllarni aks ettirishda texnik ko‘nikmalarni shakllanmaganligi aniqlanadi.

2. Kichik maktab yoshidagi optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilarda yozuv qiyinchiliklari va bu turdagi grafik faoliyatlarini shakllanishining asosi umumiy psixofiziologik xususiyatlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

3. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda optik va motor yozuv buzilishlarini bartaraf etish samaradorligi oshadi, agar korreksion ishlarning asosiy

qismi sifatida ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishda ish mazmuni va usullaridan unumli va o‘rinli foydalanilsa.

Magistrlik dissertatsiyasi Kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

# I BOB. YOZUV BUZILISHLARI MUAMMOLARINING NAZARIY TAHLILI

## 1. Yozuvning psixofiziologik tuzilishi va uning o‘ziga xos buzilishlari

Hozirgi kunda yozuvga alohida mazmun, murakkab tuzilishi va uni shakllanishining muhim yo‘llarini xarakterlovchi murakkab psixofiziologik jarayon sifatida qaralmoqda. (A.R.Luriya, ).

Yozuv jarayonining murakkab psixofiziologik tuzilishini B.G.Ananyev, T.V.Axutina, E.S.Beyn, S.M.Blinkova, YE.N.Vinarskiy, R.I.Lalayeva, O.A.Tokareva, L.S.Svetkova va boshqa olimlar o‘rganishgan. Bu tadqiqotlar yozuv jarayonini tashkil qiluvchi psixologik operatsiyalar mazmunini va ko‘pgina tizimlar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatuvchi fiziologik asosini ajratish imkonini beradi.

Yozuvning psixologik tuzilishini o‘rganishga A.R.Luriyaning ishlari asos bo‘ldi. Uning tadqiqotlari yozuv haqida butun, ko‘p bo‘g‘inli qurilishi bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, plastikligi bilan xarakterlanadigan o‘z-o‘zini boshqaruvchi murakkab tizim haqidagi tasavvurga ega bo‘lishiga olib keladi. So‘nggi yillarda paydo bo‘lgan psixologik, neyropsixologik, psixolingvistik tadqiqotlar yozuvning murakkab funksional tuzilishi va uning tarkibiga kiruvchi tizimli komponentlar haqidagi tasavvurlarni aniqlash imkonini berdi.[3]

T.V.Axutina, A.R.Luriya, L.S.Svetkovalar yozuv ham boshqa har qanday faoliyat kabi faoliyat dasturining tuzilishini va unga amal qilishni, uni bajarilishini nazoratini talab qiladi.[4]

A.R.Luriya yozuv aktini muvaffaqiyatli kechish sharti sifatida yozuv iboralarini boshqa har qanday 2-darajali omillardan ajratadi.

Bu o‘ylangan ibora yoki so‘zlarning tuzilishini saqlash demakdir. ...boshqa har qanday yo‘nalishlarni to‘xtatish kerak – oldinga intilganda ham va yozilgan so‘zni yoki tovushni, takrorlashda ham?

---

[3] Luriya A.R., Svetkova L.S, Neyropsixologiya i problemi obucheniya v obsheobrazovatelnoy shkole. - M.: Izd-vo ≪Institut prakticheskoy psixologii≫, 1996. - 64 s.

[4]

Shu tariqa yozuvning muhim funksional komponentlaridan biri ixtiyoriy boshqarish: rejalashtirish, amalga oshirish va yozuv aktini nazorat qilish hisoblanadi.

Yozuv jarayonining psixologik mazmunida A.R.Luriya qator o‘zaro bog‘langan operatsiyalarni ajratadi.

Yozuv jarayoni tarkibiga kiruvchi birinchi muhim operatsiya yozuv asosidagi so‘zlarning tovush tarkibini tahlil qilish hisoblanadi. So‘zni tashkil etuvchi tovushlar ketma-ketligini aniqlash nutqni aniq tovushlarga aylantirishning birinchi sharti hisoblanadi. Ikkinchi shart birinchi shart bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, nutqda eshitayotgan tovush variantlarini nutqiy tovushlarni fonemalarga aylantirishga xizmat qiladi. (YE.N.Vinarskaya, A.R.Luriya, L.A.Chistovich va boshqalar). Logopedik adabiyotlarda bu jarayon “Fonematik idrok” atamasi bilan yuritiladi (R.I.Lalayeva, R.YE.Levina, L.F.Spirova va boshqalar). “Tovushlar ketma-ketligini tahlil qilish va saqlash, tovushlarni ajratish va aniq fonemalarga aylantirish murakkab yozuv jarayonini amalga oshirishning birinchi, zarur sharti hisoblanadi”[5].

Fonematik idrok va fonematik tahlil nutq eshituv va nutq harakat analizatorlarining o‘zaro aloqasi orqali amalga oshiriladi. (V.I.Beltyukova, A.R.Luriya). So‘zning tovush tarkibini aniqlash gapirish yordamida amalga oshiriladi. Yozuv jarayonidagi artikulyatsiyaning roli birinchi bo‘lib L.K.Nazarova tomonidan aniq ochib berilgan. Olim tomonidan olib borilgan eksperimentlar yozuv jarayonida (aytmay) gapirmay yozish kichik maktab o‘quvchilarida xatolar sonini sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Baland, shivirlab, ichida aytib yozish A.R.Luriyaning fikricha “Yozuvdagi tovushlarni aniqlashga o‘xshash tovushlarni bir biridan farqlashga va yetarlicha aniq bo‘lmagan tovushlarni aniq fonemalarga aylantirish imkonini beradi”.[6]

---

[5] Lalayeva R.I., Venediktova L.V. Parusheniye chteniya i nisma u mladshix shkolnikov: Diagnostika i korreksiY. - SPb.: ≪Soyuz≫, 2004. - 224 s

[6] Luriya A.R. Materiali k genezisu pisma u rebyonka // Xrestomatiya po vozrastnoy i pedagogicheskoy psixologii. - M.: Izd-vo Mosk. un-ta, 1980. - s.

Shuningdek, yozuvning funksional tizimi tarkibiga nutq eshituv va kinestetik axborotlarni qayta ishlash kabi tizimli komponentlar ham kiradi (T.B.Axutina, A.R.Luriya va boshqalar).

So'zning tovush tahlilidan keyin ikkinchi operatsiya aniqlangan fonemalarni harfning ko'ruv obrazlariga moslashtirish keladi. O'quvchi yozishi kerak bo'lgan harfning grafik belgisini ko'ruv orqali tasavvur qilishi kerak (A.N.Kornev, A.R.Luriya, L.S.Svetkova va boshqalar).

Aytilganlar yozuv ko'ruv axborotini qayta ishlash kabi funksional komponentni o'z ichiga olishini bildiradi.

Har bir fonemani grafemaning ko'ruv sxemasiga "kodlash" uning o'ziga xos xususiyatlari, elementlarini fazoviy joylashuvini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Alifboni o'rganish ko'pgina qo'lyozma harflarni ko'pi bir qancha assimmetrik ekanligini, ba'zi harflar esa o'xshash ekanligini va ular elementlarining fazoviy joylashuvi bilan farqlanishini ko'rsatdi. Shunga ko'ra, harfning ko'ruv obrazini faollashtirish fazoda mo'ljal olishni egallamasdan imkonsiz hisoblanadi (B.T.Ananyev, T.V.Axutina, YE.V.Yenikolopova, A.R.Luriya, YE.R.Ribalko). Grafik jihatdan o'xshash harflarni aniq farqlash uchun ko'ruv analizi va sintezi, optik-fazoviy tasavvur yetarli darajada shakllangan bo'lishi zarur (N.L.Nemsova).

Ma'lumki, yozuvning funksional tizimi o'z ichiga polimodal (ko'ruv-fazoviy) axborotlarni qayta ishlash kabi komponentlarni ham qamrab oladi.

Fonemalarni fazoviy qatoriga aylantirish jarayoni bolalarda amalda fonematik tahlil va grafo-motor operatsiyalar bilan barobar kechadi. Bu sanab o'tilgan sensomotor jarayonlarni murakkab koordinatsiyasini va eng muhimi ularni kechishida yuqori darajadagi diqqatni to'plashni va diqqatni taqsimlanishini talab qiladi.

Uchinchi va yozuvni tashkil etuvchi operatsiyalar zanjiridagi oxirgi bo'g'in yozuvda yotgan optik belgilar (grafemalar)ni zarur grafik chiziqlar (kinemalarga) aylantirish hisoblanadi. YE.V.Guryanov tadqiqotlari yozuv jarayoni murakkab, ketma-ket ravon beriluvchi nozik qo'l harakatlarini dasturlashni ko'zda tutishini ko'rsatadi, buni A.R.Luriya murakkab "kinematik (melodiya)(hamohanglik)" deb

ataydi. Shu tariqa, qo‘l harakatlarining uzluksiz harakatini ta’minlash yozuv jarayonining muhim tizimli komponenti hisoblanadi.

Bu yozuv tarkibiga kiruvchi oxirgi bosqich bo‘lib, bu jarayonni uni shakllanishining turli bosqichlarida xarakterlaydi. Agar boshlang‘ich bosqichda yozuv harakatlari ko‘nikmasini rivojlanish bosqichda har bir harfini yozishda (yanayam ertaroq-har bir elementni) maxsus ongli harakat bo‘lsa, oxirida bu elementlar birlashadi va butun eshitilgan tovushlar birlashtirilgan belgilar bilan yozila boshlaydi. Yozuv shakllanganligini xarakterlovchi ravonlik, bu murakkab, avtomatlashgan jarayonga aylanganligini ko‘rsatadi.

Amalda oshiriladigan harakatlarni tahlil qilish kinestetik axborotlarni qayta ishlash yozuvning ajratib bo‘lmas komponenti hisoblanadi. Bundan tashqari, harakatlarini va ularning yo‘nalishini aniqlash uchun ko‘ruv-motor koordinatsiyasi zarur, bu polimodal axborotlarni qayta ishlash demakdir (T.V.Axutina). Ko‘pchilik olimlar yozuv vaqtida yetarli darajada ish qobiliyati va faollik talab qilinishini e’tirof etishadi (B.T.Ananyev, T.V.Axutina, A.R.Luriya, N.M.Pilayeva, A.V.Semenovich, M.N.Fishman, L.S.Svetkova). Demak, yozuvning funksional tizimi quyidagi tizimli komponentlarni o‘z ichiga oladi: dasturlash, yozuv aktini nazorat qilish va boshqarish, nutq eshituv, kinetik, ko‘ruv va polimodal axborotlarni qayta ishlash, harakatlarni uzluksiz tashkil etish, faollik.

Yozuvning murakkab psixologik tuzilishi, uni psixofiziologik asosi bosh miyada hamkorlikda faoliyat tortuvchi butun bir kompleks bilan ta’minlanishidan dalolat beradi (T.V.Axutina, L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, L.S.Svetkova).

Yozuv jarayonining fiziologik asosini fanning neyropsixologiya sohasi o‘rganadi. Neyropsixologiyaga har qanday oliy psixik funksiyalarga (jumladan yozuvda ham) murakkab funksional tizim sifatida miya maydonlari bilan o‘zaro aloqador ish tizimiga tayangan, psixik funksiyalarni miyali boshqarish tizimiga asos solgan hisoblanadi (T.V.Axutina, L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, YE.D.Xamskaya, L.S.Svetkova). neyropsixologik tomonidan (T.V.Axutina) yozuv ko‘nikmalarini egallashdagi qiyinchiliklarini tahlil qilish A.R.Luriya tomonidan ajratilgan miyani

tizimli-funksional boshqarish komponentlarining barchasi yozuv jarayonida qatnashishini ko‘rsatadi.

Tonusni boshqarish va hushyorlik tarkibiga saylanma faollik kabi komponent ham kiradi. Bu komponent maqsadga qaratilgan harakatlar uchun zarur energetik baza, miyaning yuqori tonusini hosil qiluvchi miya va qobiq osti ishini ta’minlaydi (A.R.Luriya). Bu tizimlar faoliyatining buzilishida faoliyatning dinamik xarakteristikasi yomonlashadi: tezlik va ish qobiliyatining pasayishi, tez charchash kuzatiladi (T.V.Axutina, YE.Y.Balashova, A.V.Semenovich, L.S.Svetkova). Axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash bloki yozuvning nutq eshituv, kinestetik, ko‘ruv va polimodal axborotlarni qayta ishlash kabi funksional komponentlarni ta’minlaydi. Bu blokning anatomik asosini bosh miyaning orqa tepa, chakka va ensa qismlari tashkil etadi.

Bu bo‘limlar ma’lum mazmunga ega axborotlarni qabul qilishni ta’minlovchi bosh miya maydonlari, proyeksion birlamchi, ikkilamchi proyeksion assotsiativ olingan axborotlarni qayta ishlashni amalga oshiruvchi miya maydonlaridagi faoliyatlarni bosqichma-bosqich amalga oshiradi. Bu blokning uchlamchi maydoni o‘zida bosh miyadagi turli analizatorlarni berkitadi va polimodal axborotlarni qayta ishlashda analizatorlar tizimining hamkorlikdagi faoliyatini boshqaradi. (A.R.Luriya, YE.D.Xamskaya).

1. Nutq eshituv axborotlarini qayta ishlash – nutq tovushlarining ma’naviy birikmalarini aniqlash-fonematik tahlil shuningdek, nutq eshituv xotirasi (L.Y.Balonov, M.K.Burlakova, V.L.Delgin, A.R.Luriya, L.S.Svetkova). Eshituv axborotlarini qabul qilishni proyeksion eshituv maydonlari (Brodman fikricha 41-chi), qayta ishlashni-ikkilamchi maydon (21,22,42-maydonlar) ta’minlaydi. Ma’lumki, 22-maydonni jarohatlanishi oppozitsion belgilariga ko‘ra fiziologik eshituv saqlangan holatda fonemalarni farqlashni buzilishiga olib keladi.
2. Kinestetik axborotlarni qayta ishlash – artikulyatsiya, kinestetik grafik harakatlarni tahlili bosh miyaning tepa qismida amalga oshiriladi. Bu hududning ikkilamchi maydonlarini (1,2,5-maydonlar) jarohatlanishi harakat aktining afferent asosini buzilishi hisoblanadi: yozuvda ishtirok etadigan (A.R.Luriya) farqlangan

nozik harakatlar imkoniyati buziladi, talaffuziga ko‘ra yaqin tovushlarni almashtirilishi kuzatiladi, ular yozuvda bu tovushlarni anglatuvchi harflarni almashtirilishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi (M.K.Burlakova, YE.N.Vinarskaya).

3. Ko‘ruv axborotlarini qayta ishlash – so‘z va harf obrazlarini faollashtirish bosh miya yarim sharining ensa qismida amalga oshiriladi. Ko‘ruv axborotlarini qabul qilish bosh miyaning birlamchi (17-maydon) maydonida amalga oshiriladi, ko‘ruv axborotini saqlash, analiz va sintezi ikkilamchi maydonda (18,19-maydonda) amalga oshiriladi. Bu maydonlarni rivojlantirmasligi ko‘ruv gnozisini buzilishiga va ko‘ruv xotirasini pasayishiga olib keladi (YE.P.Kok, A.R.Luriya). Ma’lumki, o‘ng yarimsharlar disfunksiyasi detallarni bir butun obrazini birlashtirishni ko‘zda tutadigan xolistik idrok usulini buzilishiga olib keladi: chap yarimsharlardagi disfunksiya esa– detallarni nozik tahlil qilishni ko‘zda tutuvchi idrokning analitik usulini buzilishiga olib keladi (T.V.Axutina, O.A.Kraskovskaya, L.I.Leushina, Y.A.Moyerson).

4. Polimodal axborotlarni qayta ishlash – harflarning ko‘ruv-fazoviy obrazlarini, harf elementlarini, harflarni qatorda joylashtirishni faollashtirish, ko‘ruv-motor koordinatsiya-bosh miya yarimsharlarida joylashgan tepa, ensa va peshona qismlaridagi va kinestetik ko‘ruv va eshituv analizatorlarning faoliyatini boshqaruvchi uchlamchi 7, 37, 39, 40- maydonlarda ta’minlanadi. (A.R.Luriya, L.S.Svetkova). Adabiyotlarda berilgan ma’lumotlarga ko‘ra bu maydonlarning jarohatlanishi ko‘ruv-motor va motor-eshituv koordinatsiyalarini, fazoda mo‘ljal olishni analiz va sintezini buzilishiga olib keladi. (T.V.Axutina, E.V.Zolotareva, A.R.Luriya, E.G.Simernitskaya, L.S.Svetkova).

E.P.Kok, O.A.Krasovskoy, N.G.Manelis, A.V.Semenovich, E.G.Simernitskiy, S.O.Umrixinalarning ma’lumotlariga ko‘ra ko‘ruv-fazoviy qiyinchiliklar asosan o‘ng yarimsharlar yetishmovchiligida ancha yaqqol namoyon bo‘ladi: bunda dizmetrik kamchiliklar (grafik obyekt proporsiyasiga, oraliq masofaga va zarur burchaklarga mos bo‘lmaydi) va tizimli-tipologik kamchiliklar (obyekt qurilishi tizimining fazoviy sxemasini butkul buzilishi) paydo bo‘ladi. Chap

yarimsharlarning yetishmovchiligida bu olimlarning fikricha grafik obyektni butunlay saqlashda detallarni tushirib qoldirilishini yoki o'zgartirilishi kuzatiladi.

Dasturlash, boshqarish va nazorat qilish bloki tarkibiga anatomik tuzilishiga ko'ra bosh miyaning old qismi bo'limlaridan tashkil topib, unga yozuvning uzluksiz harakatlarini va psixik faoliyatini boshqarish komponentlari kiradi.

1) Harakatlarni uzluksiz tashkil etish – grafik faoliyatni motor (kinestetik) dasturlashni motoroldi maydon (ikkilamchi 6, 8) ta'minlaydi. Bosh miyaning bu qismini yaxshi rivojlanmaganligi xarakatlar dasturini amalga oshirishdagi qiyinchiliklarga olib keladi: bir xarakatdan ikkinchi xarakatga ravon o'tishni buzilishiga, perservatsiyalarga, xarakat dasturi elementlarini noto'g'ri bajarilishiga yoki tushirib qoldirilishiga sabab bo'ladi. (T.V.Axutina, A.V.Kurganskiy, A.R.Luriya, N.N.Polonskaya, YE.D.Xamskaya, Y.V.Yablokova).

2) Ruxiy faoliyatni boshqarish – yozuv aktini dasturlash, amalga oshirish va nazorat qilish–murakkab harakat shakllarini dasturlashga, hatti-harakatlarni boshqarishga javobgar (uchlamchi maydon: 9, 10, 11, 46) bosh miyaning prefrontal maydonlarida ta'minlanadi (T.V.Axutina, A.R.Luriya, E.G.Simernitskaya, YE.D.Xamskaya).

Bu maydonlarni rivojlanmasligi oqibatida harakatlar dasturini tuzish va amalga oshirishda qiyinchilik paydo bo'ladi, harakatlarni nazorat qilish buziladi (A.V.Kurganskiy, A.R.Luriya, A.V.Semenovich, M.N.Fishman, YE.D.Xamskaya).

Yozuvni psixofiziologik tashkil etishni tahlil qilishni ko'rsatishicha, bu ko'nikmani egallash uchun barcha tavsiflangan shartlarni saqlash zarur. Miyani to'liq ishlashini ta'minlay turib, yozuv bosh miya qobig'i yoki qobiq osti tuzilishining bu psixik jarayon komponentlari bilan bog'liq funksional komponentlarini disfunksiyasida ham buzilishi mumkin (T.V.Axutina, A.R.Luriya, YE.D.Xamskiy, L.S.Svetkova).

## 2. Yozuv buzilishlari simptomatikasi

O‘ziga xos yozuv buzilishlari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ancha keng tarqalgan nutq buzilishini shakli hisoblanadi (L.V.Venidiktova, A.N.Kornev, R.I.Lalayeva). Olimlarning fikricha Rossiyada yozuv buzilishlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 10-30% ida kuzatiladi (M.M.Bezrukix, M.S.Grushevskaya, S.P.Yefimov, A.N.Kornev, R.I.Lalayeva, YE.A.Loginov, L.G.Paramonova, I.N.Sadovnikova).

Logopedik amaliyotga ko‘ra o‘quvchidagi yozuv buzilishlari mavjudligi haqidagi xulosa bir qancha mezonlarga asoslanib beriladi. Birinchi mezon o‘quvchilar yozma ishi asosida nutqni tovushli (fonematik) tahlili yotadigan, to‘g‘ri yozishda fonematik tamoyilga amal qilmaslik bilan bog‘liq o‘ziga xos xatoliklarning kuzatilishi hisoblanadi (O.B.Inshakova, R.I.Lalayeva, I.N.Sadovnikova). Yozuv buzilishlarini tashxis qilishning ikkinchi muhim mezoni maxsus xatolar chastotaliligi hisoblanadi (O.A.Velichenkova, A.N.Kornev, G.M.Sumchenko). Uchinchi mezon bo‘lib xatolar turgunligi hisoblanadi – bunda ular amaliyotda barcha yozma ishlarda uzoq vaqt davomida saqlanib qoladi (O.B.Inshakova, A.N.Kornev, R.I.Lalayeva, I.N.Sadovnikova). Bunday xatoliklarning turg‘unligi yozuv ko‘nikmasini egallashning boshlang‘ich bosqichida birga keladigan fiziologik (B.G.Ananyev bo‘yicha) xatoliklardan chegaralaydi.

Maxsus yozuv buzilishlari mexanizmini kechishiga ko‘ra, bu muammoni murakkabligidan dalolat beruvchi ilmiy izohlar ko‘p B.G.Ananyev, S.M.Blinkov, YE.N.Vinarskiy, R.I.Lalayeva, A.R.Luriya, O.A.Tokareva, L.S.Svetkova tadqiqotlariga ko‘ra, yozuv o‘z tizimiga psixik faoliyatning verbal shakli kabi, noverbal shaklini o‘z ichiga oluvchi murakkab psixik jarayon hisoblanadi, shuning uchun buzilish uni buzilishi tizimli xarakterga ega bo‘ladi. Bu tasavvurlarga asoslangan holda yozuv buzilishlari mexanizmini o‘rganishda yozuv ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun zarur qator nonutqiy funksiyalar va og‘zaki nutqni shakllanganlik darajasini birgalikda ko‘rib chiqish zarur.

R.I.Lalayeva, R.YE.Levina, I.N.Sadovnikova, L.F.Spirova, O.A.Tokareva va boshqa olimlarni yozuv buzilishlarining o‘ziga xos simptomatikasi haqidagi

muammo yetarlicha chuqur va har tomonlama ishlab chiqilgan, ammo xatolar turkumiga bitta ham yondoshuv mavjud emas. Yozuv buzilishlarini klassifikatsiyalash turli mezonlar asosida amalga oshiriladi: buzilgan analizatorlar, ruhiy funksiyalar, yozuv operatsiyasining shakllanmaganligi hisobga olinadi.

O.A.Tokareva yozuv buzilishlarini analizatorlarning analitik-sintetik faoliyatining buzilishi sifatida qaraydi va bu buzilishlarning quyidagi shakllarini ajratadi:

Yozuvning akkustik buzilishi – bunda nutq eshituv analizatori buziladi, oqibatda fonematik eshituv (idrok) va so‘zning tovush tarkibini tahlil qilish buziladi va o‘ziga xos xatoliklar kelib chiqadi (harflarni almashtirish, so‘zning tovush-bo‘g‘in tuzilishining buzilishi).

Yozuvning optik buzilishi – ko‘ruv idroki va tasavvuri, ko‘ruv xotirasi buzilishida paydo bo‘luvchi optik analizatorlarni to‘laqonli ishlamasligi bilan bog‘liq. Yozuvda bu optik o‘xshash harflarni almashtirilishida bu elementlarni fazoda noto‘g‘ri joylashuvida aks etadi.

Yozuvning motor buzilishi – harakat analizatorining to‘laqonli ishlamasligi harakat sterotiplarini patalogik harakatsizligi bilan bog‘liq. Shu sababli bolalarda yozuv vaqtida qo‘l harakatlarida qiyinchiliklar yuzaga keladi, harflarning harakat obrazlari amalga oshirilmaydi.[7]

M.YE.Xvatsev yozuv buzilishlari eng avvalo, bolalarda nutq rivojlanmasligi bilan bog‘liqligini aniqlagan tadqiqotchilardan biridir. M.YE.Xvatsev klassifikatsiyasidan hozirgi paytda logopedik amaliyotda foydalanilmaydi, ammo u tomondan yozuv buzilishlari haqidagi nazariy tasavvurlar bu buzilishlarni zamonaviy tizimlash asosida yotadi. Olim tomonidan yozuv buzilishlari shakllarini ko‘rib chiqamiz.

---

[7]Tokareva O.A. Rasstroystva chteniya i pisma (disleksii i disgrafii) // Xrestomatiya po logopedii: V 2 tt. T II / Pod red. L.S.Volkovoy i V.I.Seliverstova. -M.: Vlados, 1997. - s. 456-469.

Akustik agnoziyalar oqibatida kelib chiqadigan yozuv buzilishlari asosida, olimning fikricha so‘zning tovush tarkibini eshituv idrokini farqlanmaganligi va fonematik tahlilning yetishmovchiligi yotadi.

M.YE.Xvatsevning fikricha og‘zaki nutq buzilishlari oqibatida kelib chiqadigan yozuv buzilishlari tovushlarning noto‘g‘ri talaffuzi, bir tovushni boshqasi bilan almashtirilishini yoki yo‘qligi sababli paydo bo‘ladi va yozuvda aks etadi.

Talaffuz ritmini buzilishi oqibatida kelib chiqadigan yozuv buzilishlarini olim yozuvda so‘z va bo‘g‘inlarni tushirib qoldirish, so‘zdagi qo‘shimchalarni oxirigacha yozmaslikda aks etuvchi nutq eshituv ritmini rivojlanmaganligi bilan bog‘laydi.

Yozuvning optik buzilishini M.YE.Xvatsev bosh miyaning optik tizimini rivojlanmaganligi bilan bog‘laydi, buning oqibatida so‘z va harflarning ko‘ruv obrazini shakllanishi buziladi.

Motor va sensor afaziyadagi yozuv buzilishlari bosh miyani organik jarohatlanishi oqibatida nutqning yo‘qolishi bilan bog‘liq so‘z va gap tuzilishini buzilishida aks etadi.

A.N.Kornev tomonidan asosida quyidagi nutq buzilishlari shakllari yotgan klassifikatsiya taklif etilgan: til operatsiyalarining buzilishi bilan bog‘liq yozuvning disfonologik (paralalalik va fonematik); til analizi va sintezi buzilishi bilan bog‘liq yozuv buzilishlari; bolalarda grafo-motor ko‘nikmalarining shakllanmaganligi bilan bog‘liq disparaksik yozuv buzilishlari.[8]

I.N.Sadovnikova yozuvdagi xatoliklarni lingvistik yondashuvga asoslanib tizimlashtiradi va quyidagilarga ajratadi: harf va bo‘g‘in darajasidagi xatoliklar (tovush tahlili, fonematik idrokdagi xatoliklar kinetik o‘xshash harflarni almashtirishi, perservatsiya va antitsipatsiya), so‘z darajasidagi xatoliklar (so‘z qismlarini ajratib yozish, so‘zlarni qo‘shib yozish, morfemali agrammatizm) va gap darajasidagi xatoliklar (moslashuv va boshqaruv agrammatizmlari). Ammo, bunday yondashuvda bir guruhga turli tabiatga ega xatoliklar birlashtiriladi.

---

[8] Kornev A.N. Disleksiya i disgrafiya u detey. - SPb.: Gippokrat, 1995

Hozirgi kunda logopedik amaliyotda asosida yozuv jarayonining ma’lum operatsiyalarining shakllanmaganligi yotgan yozuv buzilishlari klassifikatsiyasi keng tarqalgan (A.I.Gersen nomidagi LDPU logopediya kafedrasi tomonidan ishlab chiqilgan). Bu klassifikatsiyaga batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Yozuv buzilishlarining artikulyator-akustik buzilishlari R.I.Lalayevaning fikricha, tovushlar talaffuzida buzilishlari bor bolalarda uchrashi mumkin. Tovushni nuqsonli talaffuzi yoki uni bartaraf etish vaqtida kinestetik sezgilarning va tasavvurning to‘laqonli emasligi tovushni harfga muvaffaqiyatli moslashtirishga to‘sqinlik qiladi. Buning oqibatida bolalarning yozuvida harflarni almashtirish, aralashtirish va tushurib qoldirilishi ko‘rinishidagi og‘zaki nutqda aks etadigan kamchilik uchraydi.[9]

Yozuv buzilishlari va fonetika-fonematik funksiyalarning shakllanmaganligida aks etadigan og‘zaki nutq kamchiliklari o‘rtasidagi bevosita aloqani G.A.Kashe, M.F.Fomicheva, G.V.Chirkina, R.I.Sheyferlar o‘z ishlarida ko‘rsatib o‘tishgan. Maxsus adabiyotlarda o‘quvchilarning tovushlar talaffuzida kamchiliklari bilan bog‘liq yozuv buzilishlari yetarlicha to‘liq tahlil qilingan. (R.M.Boskis, Z.K.Gabashvili, M.S.Grushevskaya, R.YE.Levina, L.K.Nazarova, N.A.Nikashina, V.K.Orfinskaya). G.A.Kashe, R.YE.Levina, L.F.Spirovalarning fikricha talaffuz buzilishlari yozuvda faqatgina shunday holatlarda aks etadiki, agar ular (tovush) eshituv differensiyasi buzilishi, fonematik tasavvurning shakllanganligi bilan qo‘shilib kelsa.

Fonemani anglashni buzilishi bilan bog‘liq yozuv kamchiliklari fonetik yaqin fonemalarni anglatuvchi harflarni og‘zaki nutqda to‘g‘ri talaffuzida yozuvda almashtirilishi va qorishtirilishida namoyon bo‘ladi. Bu yozuv buzilishlari mexanizmi haqida bir xil fikrlar mavjud emas. Ba’zi olimlar (A.Kornev, I.N.Sadovnikova, O.A.Tokareva) buzilishlarga akustik va artikulyator differensiyalarning kamchiliklarini sabab qilib ko‘rsatadi. Boshqa tadqiqotchilar (YE.M.Gopichenko, YE.F.Sobatovich va boshqalar) harflarni almashtirilishi

[9] Lalayeva R.I. Disgrafiya // Xrestomatiya no logonedii: V 2 tt. T II / Pod red. L.S.Volkovoy i V.I.Selivyorstova. -M.: Vlados, 1997.

bolalarni fonemalarni anglash (topish) vaqtida eshituv nazoratidan foydalanmasdan tovushlarning artikulyator belgilariga tayanishi bilan bog‘laydi uchinchi guruh olimlar (R.Bekker, A.Kossovskiy  kabi olimlarga ularga qarama-qarshi fonetik o‘xshash tovushlarni bildiruvchi harflarni almashtirilishining asosiy mehanizmi kinestetik tahlil qiyinchiliklari deb hisoblanadi).

Ba’zi olimlar (I.K.Kalpovskiy, R.I.Lalayeva, R.YE.Levina, L.F.Spirova, S.B.Yakovlev, A.V.Yastrebova va boshqalar) yozuvda harflarni almashtirilishi va qorishtirilishini fonematik rivojlanmaganlik, fonema haqidagi tasavvurlarning shakllanmaganligi fonemalarni tanlash operatsiyalarining buzilganligi bilan bog‘laydi.

Til analizi va tahlili oqibatidagi yozuv buzilishlarida bu murakkab operatsiyalarning to‘laqonli emasligi: gaplarni so‘z tahlili, bo‘g‘inli va fonematik analiz va sintezining kuzatilishi mumkin. Bu yozuvda so‘z va gaplarni buzilishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Harf, bo‘g‘in, so‘zlarni qo‘shilishi, o‘rin almashishi, tushurib qoldirilishi; so‘zlarni ajratilishi yoki qo‘shilishi; matndan gaplarni ajrata olmaslik (B.G.ananyev, YE.V.Guryanov, L.V.Zankov, D.A.Kashe, R.YE.Levina, R.I.Shuyfer).

Ba’zi olimlarning harflarini tushirib qoldirilishi sabablari haqidagi qarashlari bir qancha mos keladi. Bu hodisaning asosida fonematik tahlilni yetishmasligi yetadi, deb hisoblanadi (I.K.Kolpovskaya, A.N.Kornev, I.N.Sadovnikova, L.F.Spirova, O.A.Tokareva, R.D.Triger). Fonematik tahlil til tahlilining ancha murakkab shakli hisoblanadi, shuning uchun so‘zning tovush-harf tizimi buzilishi ko‘rinishidagi xatoliklar ancha keng tarqalgan (L.S.Volkova, S.N.Shaxovskaya [124]). Fonematik analiz va sintez shakllanmaganligi oqibatidagi yozuv buzilishlari R.YE.Levina, N.A.Nikashina, D.I.Orlova, G.V.Cherkina kabi olimlarning ishlarida batafsil yoritilgan.

Harfni o‘rnini almashtirilishi sabablarini tushuntirishda turli hil qarama-qarshi fikrlar mavjud. R.I.Lalayeva, R.YE.Levina, I.N.Sadovnikovalar bu xatoliklarni fonematik tahlilni yetishmasligi bilan bog‘laydi. A.N.Kornev harflarni

almashtirilishiga nafaqat tovushlar, tahlilini yetishmasligi, balki eshituv xotirasi, diqqati, dinamik praksis buzilishlari ham sabab bo‘ladi, deb hisoblaydi.

L.F.Spirova bunday xatoliklar sababini so‘zni to‘liqligicha tasavvur qilishdagi qiyinchiliklarda ko‘radi. A.V.Zankov harflarni o‘rnini almashtirilishini idrok etish va ko‘ruv maydonini funksiyasini buzilishi bilan bog‘laydi.

Olimlarning yozuvda harflarni qo‘shish haqidagi qarashlari ham turlicha. R.I.Lalayeva, R.YE.Levinalar ularni fonematik tahlil shakllanmaganligi oqibati sifatida belgilaydi. I.N.Sadovnikova unli tovushlarni qo‘shib yozishni so‘zlarni sekin aytilishidagi qo‘shimcha tovush shuningdek, so‘zdagi tovushlar ketma-ketligini berishdagi tebranish deb, tushuntiradi.

Gap tuzilishida paydo bo‘ladigan xatoliklar olimlar tomonidan turlicha tushuntiriladi. I.K.Kolpovskaya, R.YE.Levina bularni lug‘atning kambag‘alligi, so‘zlarni tushunishni chegaralanganligi, so‘zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarning yetishmaganligi, morfologik tahlilni shakllanmaganligi bilan tushuntiradi.

A.N.Kornev bu guruh xatoliklarni nafaqat til operatsiyalarining yetishmaganligi bilan, balki intellektual salohiyat darajasi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi.

I.N.Sadovnikova ushbu xatoliklarni diqqatni taqsimlashdagi qiyinchiliklar, iboralarni intonatsion bezashni idrok eta olmasligi bilan bog‘laydi.

Matndan gaplarni ajrata olmaslik bilan bog‘liq xatoliklarni tahlil qilishda ham olimlarning fikrlari turli-tuman. R.I.Lalayeva, R.D.Triger bu xatoliklarini o‘quvchilar tafakkurining ajralmasligi va qorishiqligi bilan bog‘laydi. R.YE.Levina bu xatoliklarni o‘quvchilar lug‘atining kambag‘alligi, so‘zlar ma’nosini tushunishning chegaralanganligi, morfologik tahlilni shakllanmaganligi, fikrni sintaktik bezashdagi qiyinchiliklar bilan bog‘laydi. [10]

---

[10] Levina R.YE. Narusheniya rechi i nisma u detey: Izbranniye trudi / Red.-sost. G.V.Chirkshi, P.B.Shoshin. -M.: ARKTI, 2005. - 224 s.
118. Levchenko

L.N.Yefilinko, I.N.Sadovnikova, S.N.Shaxovskallar gap chegarasini bildiruvchi xatoliklarni iboralarni intonatsion buyoqdorligini idrok eta olmaslik va uni punktuatsiya qoidalariga moslashtira olmasligi bilan tushuntiradi. A.N.Kornev bunday yozuv buzilishlari asosida so‘z va gaplarni analiz va sintez qilish ko‘nikmalarini shakllanmaganligi yotishini ko‘radi.

Agrammatik yozuv buzilishlari bolalarda nutqning leksik-grammatik qurilishini rivojlanmaganligi, morfologik va sintaktik umumlashtirishni shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Xatoliklar so‘z, so‘z birikmasi, gap va matnlarda paydo bo‘lishi mumkin: so‘zning morfologik tuzilishining buzilishi, moslashuv va boshqaruvni buzilishi kelishik qo‘shimchalari qurilmasini buzilishi, matn va gapni sintaktik bezashni bulishida namoyon bo‘ladi (L.V.Venediktova, I.K.Kolpovskaya, R.I.Lalayeva, R.YE.Levina, I.N.Sadovnikova, L.F.Spirova, S.B.Yakovlev, A.V.Yastrebova). Adabiyotlar tahlili, agrammatizmlar ko‘pincha o‘quvchilarning yozma ishlarining bayonlari va insholarda o‘rganilganligini ko‘rsatadi (L.R.Davidovich, I.K.Kolpovskaya, R.I.Lalayeva, N.A.Nikashina, L.F.Spirova, A.V.Yastrebova). Shunga ko‘ra, bunday xatoliklarga yozma nutq kamchiliklari sifatida qarash kerak, chunki ular yozuvchining o‘zi tomonidan aytilishida namoyon bo‘ladi.

Turli yozuv buzilishlari shakllari ichida harflarning grafik obrazini egallashdagi qiyinchiliklar olimlar o‘rtasida turli hil fikrlar qarama-qarshiligini keltirib chiqaradi.

R.YE.Levina grafik xatoliklar tabiati og‘zaki va yozma nutqni umumiy rivojlantirishi bilan belgilanadi, deb hisoblaydi. A.V.Yastrebova optik xarakterdagi xatoliklar turg‘unligi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligi nutqning rivojlanmaganlik darajasiga bog‘liq. Ilmiy maktab an’analariga ko‘ra R.YE.Levina tomonidan yozuv tizimidagi harflarni yozishni umumlashtirish nafaqat grafik jarayonlarga, balki til umumlashmalariga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

R.I.Lalayeva ushbu xatoliklarni ko‘ruv gnozisining rivojlanmaganligi, o‘xshash shakllar haqidagi tasavvurlarning shakllanmaganligi, optik-fazoviy idrok

va fazoviy tasavvurlarning, koʻruv va koʻruv-fazoviy analiz va sintezining rivojlanmaganligi bilan tushuntiradi.

Bu xatoliklar olimning fikricha, oʻz ichiga koʻp sonli va turli fazoviy oʻxshash elementlari fikricha, oʻz ichiga koʻp sonli va toʻgʻri fazoviy oʻxshash elementlarni qamrab olgan qoʻlyozma harflarning oʻxshashligi bilan bogʻliq.

O.B.Inshakova, A.N.Kornev, A.R.Luriya, L.S.Svetkovalar harflarning grafik obrazini muvaffaqiyatli egallash koʻruv idrokining koʻruv-fazoviy tasavvurlarni, optik-motor koordinatsiyalar, umumiy va mayda qoʻl motorikalarini shakllanganligiga bogʻliqligini koʻrsatadi. I.D.Emelyanova mayda qoʻl motorikalarining rivojlanmaganligi bolalarning grafik malakalari holatiga salbiy ta’sir koʻrsatadi va oʻziga xos yozuv buzilishlarining paydo boʻlishiga olib keladi.

Ye.M.Gopichenko, YE.F.Sobatovich va boshqa olimlar optik oʻxshash harflarni almashtirish bir harfni boshqasiga ma’lum oʻrinlari sharoitiga oʻtkazishdagi qiyinchiliklari sababli kelib chiqadi, deb hisoblaydilar. Olimlarning fikricha, odatda xato yozilishga ikki yoki undan ortiq bevosita alifbodagi boshqa harflar bilan oʻxshash elementlarga ega harflar uchraydi.

E.A.Danilovich tovushlarning akustiko-artikulyator va uning optik tasvirlari oʻrtasidagi aloqalarni oʻrnatish jarayoni qiyinchiliklarini qayd eta turib, bu jarayonga mos keluvchi turli aqliy operatsiyalar rivojlanishi muhimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, olim koʻruv idroki orqali bilimlarni sifatli egallash, diqqatni turgʻunligi, koʻchishi va taqsimlanishini yuqori darajada rivojlanganda amalga oshirishni koʻrsatadi. Topshiriqni bajarish vaqtida xato qarorlar qabul qilish, ularni korreksiyalashni talab qiladi. Bu faqat koʻruv nazoratini yuqori darajada rivojlanganligidagina amalga oshiriladi. [11]

Optik xarakterdagi xatoliklarga V.V.Voronkova, R.I.Lalayeva, S.S.Leonidovskiy, L.F.Spirova, O.A.Tokareva, M.YE.Xvatsev kabi olimlar fikricha, oynavand yozuv ham kiradi.

---

[11] Davidovich L.R. Osobeshosti formirovaniya rechi i pisma u uchashixsya shkol dlya detey s TIR // Nedorazvitiye i utrata rechi. Voprosi teorii i praktiki: Mejvuz. sb. nauch. tr. / Mosk. gos. ped. in-t im. V.I.Lenina. - M.: MPGI, 1985.-

A.S.Svetkova bu xatoliklarga bolalardagi fazoviy tasavvurlarning buzilishlari alomati sifatida qaraydi.

N.N.Volosovskiy, O.B.Inshakovalar fikricha, oynavand yozuv-ko‘ruv motor koordinatsiyalarining buzilishi oqibati hisoblanadi.

A.N.Kornev, I.N.Sadovnikova optik yozuv buzilishlari ichidan kinetik o‘xshash harflarni almashtirishini ajratadi, ularni harakat aktining dinamik va kinestetik tomonlarini shakllanmaganligiga harakat sterotsiklarini yo‘qligi bilan bog‘laydi.

I.N.Sadovnikova kichik maktab o‘quvchilarida optik o‘xshash harflar almashtirilmadi, birinchi elementi yozilishiga ko‘ra o‘xshash harflar, shuningdek, bir hil kinetik boshlanadigan harflar almashtiriladi deb hisoblaydi.

Harflarning grafik obrazlarini egallay olmaslik, yozilishiga ko‘ra o‘xshash harflarni almashtirilishi ko‘rinishidagi xatoliklar A.N.Kornevning fikricha, ko‘ruv-motor koordinatsiyalarining yetilmaganligi oqibati hisoblanadi. Olim bunday yozuv xatoliklarini dispraksisik xatoliklarga kiritadi. Bunday buzilishlarga ega bolalarda harflarning turg‘un harakat formulasi juda sekin hosil bo‘ladi; har bir harakatni yozish avtomatlashgan holda amalga oshmaydi va ongli nazoratni talab qiladi. Uzluksiz yozishda A.N.Kornev harflar sifatining keskin yomonlashuvini, shuningdek, qing‘ir-qiyshiq noturg‘un yozuvni aniqlaydi.

Yozuvda harflarni almashtirish A.N.Kornevning fikricha Harakat sterotipining turg‘unligi oqibatida paydr bo‘ladi. “Ikkita yoki bir nechta boshlang‘ich elementlari bir hil harflarni yozishi, bu harflarni qorishtirish ko‘rinishidagi xatoliklarga olib keladi. Harflarni elementlarini yozilmagan elementi qo‘shni harf elementiga o‘xshaydi”[12].

Demak, biz an’anaviy o‘ziga hos hisoblangan yozuv xatoliklarining asosiy guruxlarini sanab o‘tdik. Yozuv buzilishlari, ularning sabablari mexanizmlari va simptomlari haqidagi mavjud tasavvurning turli-tumanligi ularni ilmiy o‘rganishdagi yondashuvlarning turlichanligi bilan bog‘liq. Barcha olimlar yozuv

[12]Kornev A.N. Narusheniya chteniya i pisma u detey. - SPb.: Rech, 2003.

buzilishlarining turlicha sonini ajratishadi, ammo barcha tadqiqotchilar optik va motor yozuv buzilishlarining mavjudligi haqidagi hamfikrlar.

Bu yozuv buzilishlari simptomlari sharxini umumlashtirib, adabiyotlarga ajratilgan yozuv tuzumining tizimli funksional komponentlarini belgilaymiz, yetarlicha rivojlanmaganlik o‘zida optik va motor xatoliklarni keltirib chiqaradi.

– Ko‘ruv-gnostik komponent (grafik belgilarning optik tahlili, ularning o‘ziga hos belgilarini aniqlash; harflarning grafik tasvirini o‘zlashtirish; yozuv jarayonida harf belgilarini egallash; harflarning ko‘ruv obrazini tez-tez va aniq tanish; ko‘rinishi jihatidan o‘xshash obrazlarni farqlash);

– Ko‘ruv-fazoviy komponent (harflarning ko‘ruv obrazini fazoviy tasnifini qayta ishlash, ularning o‘ziga hos xususiyatlarini aniqlash, harflarning ko‘ruv-fazoviy olbrazlarini faollashtirish; harf elementlari harfni o‘zini qatordagi fazoviy o‘rnini aniqlash; daftar varog‘ida mo‘ljal olish);

– Motor komponent (qo‘lni bevosita grafik faoliyat quroli sifatida aniq murakkab koordinatsiyali xarakatlarni bajarishga tayyorlash);

– Ko‘rgazmali motor komponent (yozuv jarayonida grafik belgilarni muvaffaqiyatli chizishni ta’minlovchi takomillashgan qo‘l harakatlarni egallash; qo‘lyozma harflarni va ularni bog‘lovchi harakat obrazlarni yaratish).

## Birinchi bob bo‘yicha xulosa

Birinchi bobda yozuvning psixofiziologik tuzilishi va uning o‘ziga xos buzilishlari bayon etilib,bunda yozuv jarayonining murakkab psixofizilogik tuzilishi xaqidagi olimlar fikrlari bayon etiladi. So‘nggi yillarda paydo bo‘lgan psixologik, neyropsixologik, psixolingvistik tadqiqotlar yozuvning murakkab funksional tuzilishi va uning tarkibiga kiruvchi tizimli komponentlar haqidagi tasavvurlarni aniqlash imkonini berdi. Ko‘pchilik olimlar yozuv vaqtida yetarli darajada ish qobiliyati va faollik talab qilinishini e’tirof etishadi (B.T.Ananyev, T.V.Axutina, A.R.Luriya, N.M.Pilayeva, A.V.Semenovich, M.N.Fishman, L.S.Svetkova). Demak, yozuvning funksional tizimi quyidagi tizimli komponentlarni o‘z ichiga oladi: dasturlash, yozuv aktini nazorat qilish va boshqarish, nutq eshituv, kinetik,

ko‘ruv va polimodal axborotlarni qayta ishlash, harakatlarni uzluksiz tashkil etish, faollik.

Yozuvning murakkab psixologik tuzilishi, uni psixofiziologik asosi bosh miyada hamkorlikda faoliyat tortuvchi butun bir kompleks bilan ta’minlanishidan dalolat beradi (T.V.Axutina, L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, L.S.Svetkova).

Yozuv jarayonining fiziologik asosini fanning neyropsixologiya sohasi o‘rganadi. Neyropsixologiyaga har qanday oliy psixik funksiyalarga (jumladan yozuvda ham) murakkab funksional tizim sifatida miya maydonlari bilan o‘zaro aloqador ish tizimiga tayangan, psixik funksiyalarni miyali boshqarish tizimiga asos solgan hisoblanadi (T.V.Axutina, L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, Ye.D.Xamskaya, L.S.Svetkova). neyropsixologik tomonidan (T.V.Axutina) yozuv ko‘nikmalarini egallashdagi qiyinchiliklarini tahlil qilish A.R.Luriya tomonidan ajratilgan miyani tizimli-funksional boshqarish komponentlarining barchasi yozuv jarayonida qatnashishini ko‘rsatadi.

Birinchi bobda  yozuv buzilishlari simtomatikasi xam keltirilib,maxsus yozuv buzilishlari mexanizmini kechishiga ko‘ra,bu muammoni murakkabligidan dalolat beruvchi ilmiy izoxlar ushbu bobda atroflicha bayon etiladi.

# II BOB. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA GRAFIK FAOLIYAT VA UNDA ISHTIROK ETUVCHI OLIY PSIXIK FUNKSIYALARNI TADQIQ QILISH

## 1. Ta’kidlovchi eksperiment maqsadi, vazifalari va tashkil etilishi

Ta’kidlovchi eksperimentning maqsadi kichik maktab yoshidagi bolalarda korreksion ish usullari va mazmuni, yo‘nalishlarini belgilash uchun optik va motor yozuv buzilishlariga ega boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozuv holatini o‘rganishdan iborat edi. Ta’kidlovchi eksperiment biz tomondan o‘quv yili davomida Toshkent shahar Olmazor tumanidagi №28 maktabining 2-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazildi. Biz umumiy 100 ta o‘quvchini o‘rgandik, ulardan 30 ta o‘quvchida yozuv buzilishlari aniqlandi. O‘quvchilar nutqida og‘zaki nutq buzilishlari kuzatildi. Tibbiy ma’lumotlarga ko‘ra bolalarda eshitish, ko‘rish va intellekt meyorda bo‘lgan. O‘rganilayotgan o‘quvchilardan 20 tasida yozuvning optik va motor buzilishlari aniqlanadi. Keyinchalik bu bolalarda grafik faoliyatda ishtirok etuvchi oliy psixik funksiyalar xususiyatlari chuqur o‘rganildi. Qiyosiy tahlil o‘tkazish uchun yana yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan shuncha tengdoshlari o‘rganildi.

Ta’kidlovchi eksperimentni o‘tkazishda quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Yozuv holatini o‘rganish va o‘quvchilarning yozma ishlaridagi o‘ziga xos xatoliklarni tahlil qilish;
2. Optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilar yozuv ko‘nikmalarini egallashni ta’minlovchi oliy psixik funksiyalar holatini o‘rganish.

Qo‘yilgan vazifalarga mos ravishda o‘z ichiga 3 ta yo‘nalishni qamrab olgan ta’kidlovchi psixologo-pedagogik eksperiment ishlab chiqildi va o‘tkazildi.

Birinchi yo‘nalish maqsadi yozuv buzilishlariga ega bolalarda o‘ziga xos yozuv buzilishlarini tahlil qilish va ularni ahamiyatiga ko‘ra farqlash edi.

Ikkinchi yo‘nalishning maqsadi optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilar yozuv ko‘nikmalarini shakllanishining asosiy shartlarini o‘rganish edi (qiyosiy darajada).

Qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun turli tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Eksperimental psixolog-pedagogik metodikalar, bolalar faoliyatini darslar va logopedik mashg‘ulotlar vaqtida kuzatish, o‘qituvchilar va ota-onalar bilan suhbatlashish, tibbiy-pedagogik xujjatlarni o‘rganish, o‘quvchilarning yozma ishlari va chizgan rasmlarini tahlili, eksperiment ma’lumotlarini statistik qayta ishlash metodlari.

## 2. Eksperimental tadqiqot yo‘nalishlari

### Yozuvni o‘rganish

Yozuvning o‘ziga xos buzilishlarini o‘rganish o‘quvchilarning o‘quv yili davomida ona tilidan tutgan ish va nazorat ishi daftarlarini tahlil qilish asosida olib borildi, xatolarning umumiy soni o‘quv yili oxirida hisob-kitob qilindi. Disgrafik xatoliklar turli yozma ish turlarida: ko‘chirib yozish, diktant, bayon, insholarda o‘rganildi. Yozuv xatoliklarini tahlil qilish uchun R.I.Lalayevaning moslashtirilgan sxemasi qo‘llanildi:

1. Fonematik analiz va sintezni shakllanmaganligi bilan bog‘liq yozuvdagi xatoliklar (jarangli-jarangsiz undoshlarni almashtirilishi, affikatlar va ularning komponentlarini, lablangan unlilar, til orqa, sonar, sirg‘aluvchi-shovqinli tovushlarni almashtirilishi).
2. Fonematik analiz va sintezni shakllanmaganligi bilan bog‘liq yozuvdagi xatoliklar (unli va undosh harflarni tushirib qoldirilishi, harflarni o‘rnini almashtirilishi, so‘zdagi bo‘g‘inlarni tushirib qoldirilishi).
3. Gap tuzilishini tahlil qilishni shakllanmaganligi bilan bog‘liq yozuvdagi xatoliklar (so‘zlarni bir-biri bilan qo‘shib, so‘zlarni qismlarga ajratib yozish so‘zni qo‘shimchalarini alohida ajratib yozish).
4. Matndan gaplarni ajrata olmaslik bilan bog‘liq yozuvdagi xatoliklar (bosh harflarni tushirib qoldirilishi, gap oxirida nuqtalarni yo‘qligi, bosh harflarni noto‘g‘ri qo‘llash va gap o‘rtasida nuqta qo‘yish).

5. Grafik jihatdan o‘xshash harflarni yozishdagi xatoliklar (optik va kinetik o‘xshash harflarni almashtirilishi, harflarni oynavand yozuvi).

O‘quvchilar yozma ishlarida kuzatuvchi agrammatizmlar biz tomonidan tahlil qilinmadi, chunki bu xatolik yozuvchining o‘zini gapirishida paydo bo‘ladi. Diktant asosidagi yozuv xatoliklarini tadqiq qilishda va ko‘chirib yozishda bu guruh o‘quvchilarda agrammatizmlar kuzatilmadi. Bu xatoliklar bayon yoki insho kabi yozma ishlarda kuzatiladi. T.V.Axutina va O.B.Inshakovalar taklif etgan metodikalarga ko‘ra tahlil qilinganda qo‘shimcha motor xarakterdagi bir qancha yozuv buzilishlari qayd etildi:

- harflarni grafik noaniq berilishi;
- harflarni grafik xatoliklari;
- yonidagi qo‘shni harfdagiga o‘xshash harf elementlarini yozmasdan qoldirish.

O‘ziga xos yozuv buzilishlarini tahlili.

O‘quvchilar daftarlarini tahlil qila turib, biz yo‘l qo‘yilgan o‘ziga o‘ziga xos xatoliklar sonini aniqladik, bu bolalar yozuvidagi ma’lum tur xatoliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Maksimal darajadagi xatoliklar (ballar) yuqori darajadagi yozuv buzilishlarini aks ettirilganligidan dalolat beradi.

## Yozuv ko‘nikmalarini egallashni ta’minlovchi oliy psixik funksiyalarni o‘rganish

Yozuv mexanizmlarini umumiyligini hisobga olib, biz optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilarning yozuv jarayonida ishtirok etuvchi oliy psixik funksiyalarni o‘rganishni lozim deb bildik.

T.V.Axutina, G.V.Babina, G.I.Vergeles, N.V.Gatanova, I.V.Dubrovina, A.R.Luriya, L.A.Matveyeva, YE.G.Tunina, N.F.Shlyaxta va boshqa olimlar ishlarida aks ettirilgan yozuv ko‘nikmasini to‘laqonli egallashni ta’minlovchi nonutqiy psixik funksiyalarni tadqiq qilishning metodikalari to‘plamidan foydalanildi. O‘quvchilarga grafik faoliyat shakllanishida ishtirok etuvchi psixik funksiyalarni o‘rganishga yo‘naltirilgan qator topshiriqlar taklif etildi: ko‘ruv diqqati, idroki va ko‘ruv gnozisi, ko‘ruv-motor koordinatsiyalari. Topshiriqlar

mazmuni rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillariga javob beradi, o‘quvchilar yoshiga mos, ularga qiziqarli va xos shu bilan birga bolalarni o‘quv faoliyati jarayonida kelgusidagi bilish faoliyatlarining faolligini rivojlantirish uchun istiqbol yaratadi. Barcha eksperimental topshiriqlar nafaqat umumiy diagnostik, balki o‘quv, korreksion va prognostik funksiyalarni ham bajaradi.

Ta’kidlovchi eksperiment obyektivlik talablariga javob beradi. Barcha eksperimental va tadqiqot guruhidagi o‘quvchilar bir hil sharoitda o‘rganildi: tadqiqotni bir kishi olib bordi, begona shaxslar ishtirok etmadi, topshiriqlar, ularning ko‘rsatmalari ko‘rgazmalar bir xil edi: yordam ko‘rsatish ham barchaga bir xil bo‘ldi, eksperimental ma’lumotlarni qayta ishlashda har bir tekshiriluvchiga bir xil mezon qo‘llanildi.

Diagnostik tadqiqotning muhim vazifasi uni o‘lchash, shuningdek, turli eksperimental ma’lumotlar va sonli kattaliklar o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish. Baholash yuqorida ko‘rsatilgan olimlar taklif etilgan mezonlarni hisobga olib o‘tkazilgan va o‘quvchilarni eksperimental topshiriqlarni bajarish natijalarini qiyosiy tahlili olib borilgan. Olingan natijalar har bir o‘quvchida yozuv jarayonida ishtirok etuvchi oliy psixik funksiyalarni shakllanganlik darajasini aniqlash imkonini berdi (3 balli mezonda).

**3 ball** – topshiriq maqsadini tushunishi, uni mustaqil va muvaffaqiyatli bajarish, faoliyatlarni umumlashtirish vositasida va joriy nazorat bilan, xatolarsiz bajarish.

**2 ball** – topshiriqni tushunish, unda mo‘ljal olish, urinib ko‘rish metodi bo‘yicha harakatlanish, yordamni va o‘rgatishni qabul qilish, topshiriqni bajarilishida ko‘p bo‘lmagan xatoliklarni kuzatilishi.

**1 ball** – shartni tushunmaslik yoki qisman tushunish, topshiriqni mustaqil bajarishdan bosh tortish yoki ko‘p marotaba urinish orqali uzoq muddatda ko‘pgina xatoliklar bilan bajarish.

Olingan ma’lumotlarni qayta ishlash natijalari asosida biz bolalar tomonidan eksperimental topshiriqlarni bajarish natijalarini aks ettiruvchi jadvallar tuzdik.

Umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar va ularni o‘zaro qiyoslashda statistik metoddan foydalanildi.

## Ko‘ruv diqqatini o‘rganish

Topshiriq ko‘ruv diqqatini alohida xususiyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan.

**1-topshiriq.** Maqsad: diqqat ko‘lami va taqsimlanishini aniqlash. Ko‘rsatma: “Rasmga qara. Sen chap tomonda tartib bilan eng kattadan-eng kichikgacha joylashtirilgan doirachalarni ko‘ryapsan. Sen jadvaldan barcha bo‘sh doirachalarni eng kattasidan boshlab tartib bilan ko‘rsat”.

**2-topshiriq.** Maqsad: diqqatning turg‘unligi va ko‘ruv nazoratini aniqlash. Ko‘rsatma: “Rasmga qara. Chapda – rangli kataklar, o‘ngda – bo‘sh. Ular aralash chiziqlar bilan birlashtirilgan. Ko‘zing bilan kuzat, rasmning o‘ng tomonidagi katakdagi chiziqlar qaysi katak to‘g‘risida tugaydi, katakni unga mos rang bilan bo‘ya”.

**3-topshiriq.** Maqsad: diqqatni turg‘unligini aniqlash. Ko‘rsatma: “Namunaga qara. Endi rasmga qara. Bu rasmlardagi qatordan namunadagidek sharchalar ketma-ketligini top”.

Har bir topshiriqni bajarilishini baholash mezoni.

3 ball – xatoliklar yo‘q.

2 ball – 1-2 ta xatoliklar.

1 ball – 3 ta va undan ortiq xatoliklar.

## Ko‘ruv idroki va bilish (ko‘ruv gnozisi)ni o‘rganish

**1-topshiriq.** Maqsad: ko‘ruv tahlilini shakllanganlik darajasini aniqlash. Ko‘rsatma: “Rasmga qara. Bu yerda ko‘rayotgan barcha tasvirlar (rasmlar)ni nomla”.

**2-topshiriq.** Maqsad: ko‘ruv sintezini shakllanganlik darajasini aniqlash. Ko‘rsatma: “Seni oldingda predmetlarni tugallanmagan tasviri turibdi. Ularga qara va rassom nimalarni chizishni chizishni xohlaganini aniqla”.

**3-topshiriq.** Maqsad: ko‘ruv sintezini shakllanganlik darajasini aniqlash. Ko‘rsatma: “Televizor ekranida noaniq tasvir berilgan. Qanday predmet tasvirlanganligini aniqla”.

**4-topshiriq.** Maqsad: Ko‘ruv analizini shakllanganlik darajasini aniqlash. Ko‘rsatma: “Rasmga qara. Bu chiziqlar o‘rtasida predmetlar tasviri yashiringan. Bu predmetlarni top va nomla”.

Topshiriqni bajarilishini baholash mezoni:

3 ball – xatoliklar yo‘q.

2 ball – 1-2 ta xatoliklar.

1 ball – 3 ta va undan ortiq xatoliklar.

**Optik materialdagi tafakkur operatsiyalarini o‘rganish**

Topshiriqlar alohida tafakkur operatsiyalarini o‘rganish uchun yo‘naltirilgan.

**1-topshiriq.** Maqsad: bir qancha optik belgilariga ko‘ra umumlashtirish operatsiyalarini shakllanganlik darajasini aniqlash. Ko‘rsatma: “Birinchi qatordagi shakllarga qara. Qolgan qatorlarda yetishmaydigan shakllarni chiz. Nima uchun aynan shu shakllarni chizganligingni tushuntir”.

**2-topshiriq.** Maqsad: optik materiallarda tizimlashtirish operatsiyalarini shakllanganlik darajasini aniqlash. Ko‘rsatma: geometrik shakllar joylashtirilgan jadvalga qara. Ular ma’lum tartibda joylashtirilgan. Senda 5 ta qattiq kartonli shakllar bor. Ularni jadvalda turishi lozim bo‘lgan kataklarga qo‘y. Shakllarni hajmi va shakliga e’tibor ber.

**3-topshiriq:** ko‘ruv analizini o‘rganish. Ko‘rsatma: “Har bir qatordagi birinchi rasmga qara. Qolgan kataklarda yetishmaydigan qismlarni chiz”.

Topshiriqlarni bajarilishini baholash mezoni.

3 ball – xatoliklar yo‘q.

2 ball – 1-2 ta xatoliklar.

1 ball – 3 ta va undan ortiq xatoliklar.

**Statik va dinamik praksisni o‘rganish**

Har bir qo‘l va ikkala qo‘llar bilan bajariladigan topshiriqlar.

**1. Statik praksis:**

– kaftni barmoqlarni juftlashtirgan holda to‘g‘ri yozish va bu holatda sanoq ostida 10 dan 15 gacha ushlab turish;

– kaftni to‘g‘ri, barmoqlar yozilgan holda sanoq ostida 10 dan 15 gacha ushlab turish;

– birinchi va beshinchi barmoqlarni ko‘tarish va bu holatni sanoq ostida 10-15 gacha ushlab turish;

– ikkinchi va uchinchi barmoqlarni ko‘tarish va bu holatlarni sanoq ostida 5-8 gacha ushlab turish;

– birinchi va ikkinchi barmoqlarni uzuk holatida sanoq ostida 5-8 gacha ushlab turish;

– birinchi barmoqni uchinchi barmoq ustiga qo‘yish va bu holatni 5-8 gacha ushlab turish;

– uchinchi barmoqni ikkinchi barmoq ustiga qo‘yish va bu holatni sanoq ostida 6-8 gacha ushlab turish.

**2. Dinamik praksis:**

– barmoqlarni musht qilib yig‘ish va yoyish (5-8 marta);

– musht-qovurg‘a-kaft qator topshiriqni bajarish (5-8 marta);

– kaftlarni stolga qo‘yish, barmoqlarni bir-biriga tekkizish, birlashtirish (5-8 marta);

– bir vaqtda ikkala qo‘l holatlarini almashtirish; birini musht qilish, ikkinchisini yozish (5-8 marta);

– barmoqlarni uzuk holatiga keltirish (barcha barmoqlarni bosh barmoqqa yaqinlashtirish), kaftni ochish (5-8 marta);

– navbat bilan ikkinchi va uchinchi barmoqlarni ko‘tarish, keyin ikkinchi va beshinchi barmoqni (5-8 marta);

– navbat bilan barcha qo‘l barmoqlarini bosh barmoq bilan birlashtirish;

– navbat bilan har bir barmoq bilan stolga teginish;

– navbat bilan har bir barmoq bilan, ikkinchi barmoqdan boshlab qalamni aylantirish.

Topshiriqni bajarilishini baholash mezoni:

3 ball – o‘quvchi topshiriqni muvaffaqiyatli bajardi.

2 ball – qisman bajardi.

1 ball – bajara olmadi.

**Ko‘ruv-fazoviy idrok va ko‘ruv-motor koordinatsiyalarini o‘rganish**

**1-topshiriq.** Maqsad: ko‘ruv-fazoviy idrokni o‘rganish. Ko‘rsatma: “Har bir rasmga qara va unda nechta uchburchak borligini ayt”.

**2-topshiriq.** Maqsad: ko‘ruv-fazoviy idrokni o‘rgansh. Ko‘rsatma: “Rasmda tasvirlangan shakllarga qara keyin ular ichidan boshqa shakllarni top: 1) tekislikka o‘girilgan; 2) tekislikda bir-birini ustiga joylashtirilgan, o‘girilgan”.

**3-topshiriq.** Maqsad: ko‘ruv-fazoviy idrokni o‘rganish. Ko‘rsatma: “Senda bir xil 2 ta qog‘oz kvadrat bor. Agar bu kvadratlarni boshqasini ustiga turlicha qo‘yilsa, qanday shakllar hosil bo‘lishi mumkin? Rasmdan bu shakllarni top”.

1-3 topshiriqlarni bajarilishini baholash mezoni.

3 ball – xatoliklar yo‘q.

2 ball – 1-2 ta xatoliklar.

1 ball – 3 ta va undan ortiq xatoliklar.

**4-topshiriq.** Maqsad: ko‘ruv-fazoviy idrok, ko‘ruv-motor koordinatsiyalarini o‘rganish. Ko‘rsatma: “Rasmni chap tomoni qismidagi shakllarga qara. Yonidagi bo‘sh kataklarga huddi shunday shakllar chiz”.

**5-topshiriq.** Maqsad: ko‘ruv-fazoviy idrok, ko‘ruv-motor koordinatsiyalarini o‘rganish. Ko‘rsatma: “Rasmni chap tomoni qismidagi shakllarga qara. Yonidagi bo‘sh kataklarga shakllarni oynadagi aksini chiz”. Topshiriqni bajarish uchun tahminiy namunalar beriladi.

**6-topshiriq.** Maqsad: ko‘ruv-fazoviy idrok, ko‘ruv-motor koordinatsiyalarini o‘rganish. Ko‘rsatma: “Rasmga qara. Undagi barcha geometrik shakllarni top va chiz”.

**4-6 topshiriqlarni bajarishni baholash mezoni**

**3 ball** – shakllarni tasvirlashda xatoliklar yo‘q. Hajm, proporsiya, shtrix yo‘nalishlari saqlangan. Shakllar ajratilgan maydonga to‘g‘ri joylashtirilgan (4-5 topshiriqlar). Chiziqlar to‘g‘ri, aniq o‘zaro to‘g‘ri birlashtirilgan.

**2 ball** – 1-2 ta xatoliklar mavjud. Hajm, proporsiya, shtrixlar yo‘nalishini berishda noaniqlik mavjud. Shakllar ajratilgan maydonda to‘g‘ri joylashtirilgan. Chiziqlar ozroq qiyshaygan, har doim ham o‘zaro to‘g‘ri birlashmagan.

**1 ball** – shakllarni tasvirlashda 3 yoki undan ortiq xatoliklar. Hajm, proporsiyalar, shtrixlarni yo‘nalishidagi buzilishlar aks etadi. Ajratilgan maydonlarga shakllarni joylashtirishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Chiziqlar qiyshiq, noaniq, qisqa, oxirigacha yetkazilmagan, yoki o‘zaro noaniq bog‘langan.

Ko‘ruv-fazoviy idrok va ko‘ruv-motor koordinatsiyalari sifati alohida baholanadi, keyin ularni shu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘rtacha ahamiyati va har bir ishtirokchining o‘rtacha balli aniqlandi.

## Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa

Ikkinchi bobda kichik maktab yoshidagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida grafik faoliyat va unda ishtirok etuvchi oliy psixik funksiyalarni tayyorgarlik darajasini tekshirish metodikasi keltiriladi.Tekshirish metodikasini tuzishda asosiy maqsadni yozuvni o‘rganish, yozuv ko‘nikmalarini egallashni ta’minlovchi oliy psixik funksiyalarni ya’ni: ko‘ruv diqqati, ko‘ruv idroki va bilishni, optik materialdagi tafakkur operatsiyalari, statik va dinamik praksis, ko‘ruv- fazoviy idrok va ko‘ruv- motor koordinatsiyalarni o‘rganishga asosiy diqqatni jalb qildik. O‘quvchilarda grafik faoliyat va unda ishtirok etuvchi oliy psixik funksiyalarni rivojlanganlik darajasini aniqlashda turli mualliflarning ish usullaridan foydalandik. Xususan, T.V.Axutina, G.V.Babina, G.I.Vergeles, N.V.Gatanova, I.V.Dubrovina, A.R.Luriya, L.A.Matveyeva, YE.G.Tunina, N.F.Shlyaxta va boshqa olimlar ishlarida aks ettirilgan yozuv ko‘nikmasini to‘laqonli egallashni ta’minlovchi nonutqiy psixik funksiyalarni tadqiq qilishning metodikalari to‘plamidan foydalanildi. Bunda biz o‘zbek tili til xususiyatlari va o‘quvchilarni o‘ziga xoslik holatlarini hisobga olgan holda qo‘llanilgan metodikani tekshirish jarayonlariga moslashtirishni ma’qul deb topdik.

# III BOB. KICHIK MAKTAB O‘QUVCHILARIDA GRAFIK FAOLIYAT VA UNDA ISHTIROK ETUVCHI OLIY PSIXIK FUNKSIYALARDAGI KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISHDA KORREKSION ISH

## 1.O‘ziga xos yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilarni tadqiq qilish natijalari

O‘quvchilarning yozma ishlarini tahlil qilish ulardagi o‘ziga xos va orfografik xatoliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Bizning e’tiborimiz yozuvning fonematik tamoyillariga amal qilmaslik bilan bog‘liq o‘ziga xos xatoliklarni o‘rganishga qaratildi. Tadqiqotda ushbu xatoliklar turg‘un xarakterga ega bo‘lgan shuningdek uzoq muddat deyarli xamma yozma ishlarida xatoliklar kuzatiladigan bolalar ishtirok etdi.

O‘quvchilar ishlari o‘ziga xos xatoliklarning turli – tumanligi bilan farq qilardi, xar bir bolada xatoliklar soni turlicha bo‘lib, buzilishlari darajasi turlicha bo‘lishiga qaramasdan ko‘pgina o‘quvchilar ishlarida barcha asosiy turdagi xatoliklar kuzatildi.

O‘quvchilar yozuvini o‘rganishning sonli natijalari birinchi jadvalda aks ettirilgan.

**O‘quvchilar yozuvidagi xatoliklar**

**1- jadval**

| № | **Yozma nutq buzilishlari Turlari** | **% hisobida** |
|---|---|---|
| 1. | Fonematik analiz va sintezi bilan bog‘liq yozuvdagi xatoliklar | 30% (9ta) |
| 2. | Grafik o‘xshash harflarni yozishdagi xatoliklar | 24% (7ta) |
| 3. | Matndan gaplarni ajrata olmaslik bilan bog‘liq yozuv xatoliklari | 21% (6ta) |
| 4. | Fonematik idrokning rivojlanma gan ligi bilan bog‘liq yozuvdagi xatoliklar | 16% (5ta) |
| 5. | Gap tuzilishini tahlil qilishni shakllanmaganligi bilan bog‘liq yozuvdagi kamchiliklar | 9% (3ta) |
| Jami: | | 100%(30ta) |

Fonematik analiz va sintezi shakllanmaganligi bilan bog‘liq xatoliklar 30 %; grafik o‘xshash harflarni yozishdagi xatoliklar 24 %; mantdan gaplarni ajrata olmaslik bilan bog‘liq xatoliklar 21 %; fonematik idrokni yetishmovchiligi bilan bog‘liq xatoliklar 16 %; gap tuzilishi tahlilini shakllanmaganligi bilan bog‘liq xatoliklar 9 %ni tashkil etadi.

O‘quvchilardagi yozuv buzilishlarini 5 ta ajratilgan tur bilan sonli taqsimlanishi 1-diagrammada keltirilgan.

**1-diagramma**




Fonematik analiz-sintezni shakllnmaganligi bilan bog‘liq xatoliklar

**2- jadval**

| № | **Yozuvdagi xatoliklar** | **% ko‘rsatkichida** |
|---|---|---|
| 1. | Unli harflarni tushirib qoldirish | 14,3% |
| 2. | Undosh harflarni tushirib qoldirish | 9,5 |
| 3. | Unli harflarni qo‘shib yozish | 3,1% |
| 4. | So‘zdagi bo‘g‘inlarni tushirib yozish | 2,2% |
| 5. | Harflarni o‘rnini almashtirish | 0,9 |
| Jami | | 30% |

2-jadvalda fonematik analiz-sintezni shakllanmaganligi bilan bog‘liq xatoliklar ifodalangan. Fonematik analiz va sintezni shakllanmaganligi bilan bog‘liq xatoliklar soni 30 % aniqlanib, ulardan unli tovshularni tushirib qoldirilishi 14,3 % ni tashkil etdi.

Unli harflar so‘zlarning turli qismlarida tushrib qoldirilgan, ya’ni so‘z boshida (lma - olma), o‘rtasida (maydon – mydon, son – sn, daraxt - draxt) va so‘z oxirida (sabzi – sabz, shaftoli - shaftol). Qator xollarda bir nechta unlilar tushirib qoldiriladi, bu yozilganlarni tushunilishini qiyinlashtiradi. (sakkinzi – skknchi, nozik – nzik).

Undosh tovshularini tushirib qoldirilishi (9,5 %) so‘zlarda ketma- ket kelgan undoshlarda kuzatilib, bu xolat analiz uchun ancha qiyin. (qasrda – qarda, Toshkent – Toshknt) ammo ketma- ket kelgan undoshlar ishtirok etgan so‘zlarda xam xatolar kuzatildi (baliq – baiq, qalam - qaam). Undosh tovushlar so‘zning turli qismlarida tushirib qoldirilgan: So‘z boshida (traktor – raktor, daryo - aryo).

So‘z o‘rtasida (usta – uta, qizcha - qicha).

So‘z oxiridi (do‘st - do‘s, kamalak - kamala).

Ba’zi xollarda harflarini tushirib qoldirilishi so‘zlarda ikkita o‘xshash harflarini yonma – yon kelishida kuzatildi: daraxt turibdi – darax turibdi. Undosh harflarni tushirib qoldirilishi 9,5%ni tashkil etdi.

Unlilarni qo‘shib yozish (3,1 %), odatda ketma – ket kelgan undoshlar orasida kuzatilib (satr – satir, oktabr – oktyabar) bu yozuv jarayonida so‘zlarini sekin aytilishidagi va qisqa unlini elatishini paydo bo‘lishi bilan tushuntiriladi.

Tashqi ko‘rinishida bu misollar so‘z tarkibi mavjud unlilarga yana unli tovushni “qo‘shish” ko‘rinishidagi so‘zlarga o‘xshaydi. (sirk – sirik, rangli – rangili, maktab - makatab) ba’zi xollarda bunday takrorlashlar undosh harflar bilan xam yuz bergan. (bog‘da – bog‘oda, xarakter - xaratkter). Bunday xatoliklar bolalarda so‘z tarkibidagi toshvular ketma – ketligini aks ettirishdagi tebranishi sifatida baxolanib, bu yozuvda bir vaqtda xam xato xam to‘g‘ri yozishni aks etadi. So‘zdagi bo‘g‘inlar tushirib qoldirish xamma xatoliklarini 2,2 % tashkil etdi. Qaysidir darajada bo‘g‘inlarni tushirib qoldirilishi qo‘shni bo‘g‘indagi bir xil harflarga mos keladi. Unlilar (bolalar – bolar, daraxtda - daxtda) kamroq xollarda undoshlar

tushirib qoldiriladi. (dushman – dushn, qo‘rqich - qo‘rchi). Bu xatoliklarini sababini biz bolalar yozish vaqtida gapirib yozishni yozuv tempiga mos emasligida, mazmunda chiqib ketishida ko‘ramiz.

Harflarini o‘rnini almashtirish umumiy xatoliklarini atigi 0,9 % tashkil etdi. (gilam – gimal, bo‘ldi – bo‘dli, bulbul - bublul). Harflarni o‘rnini almashtirish bizning fikrimizcha ketma – ket tahlili operatsiyasining buzilishi oqibatdir. Tekshirluvchi so‘zdagi tovshular ketma – ketligini aniqlay olmagan.

**2-diagramma**




**Grafik jihatdan o‘xshash harflarni yozishdagi xatoliklar**

**3- jadval**

| № | Yozuvdagi xatoliklar | % ko‘rsatkichida |
|---|---|---|
| 1 | Kinetik jihatdan o‘xshash harflarni almashtirilishi | 16% |
| 2 | Optik jihatdan o‘xshash harflarni almashtirilishi | 6,7% |
| 3 | Harflarni oynavand yozuvi | 1,3% |
| | Jami | 24% |

Grafik jihatdan o‘xshash harflarni yozishdagi xatoliklar guruhiga shakli va yozilishi o‘xshash harflarni almashtirilishi kiritilgan.

Grafik jihatdan o‘xshash harflarni almashtirilishi o‘ziga xos xatoliklarning 24 % tashkil etdi. Bu guruxga kinetik jihatdan o‘xshash harflarni almashtirilishi 16 % tashkil etib, unda harfning birinchi elementi yozilishiga ko‘ra o‘xshash harflarni noto‘g‘ri yozishda namoyon bo‘ldi. Bolalar uni yozishda bir xil elementlarni noto‘g‘ri aks ettiradi (lola – lama, aprelda – apremda, keldi – kemdi, Toxir – Poxir, Po‘lat – To‘lat, zaytun – zayqun, taqdi – paqdi, o‘xshamoq – o‘xshatmoq, sholi – ioli, ilon - shilon) yoki keyingi elementni noto‘g‘ri tanlaydi. (rom – gom, gavxar – Ravxar, bulut – bilit, ortiq – ortik, omad – omab, shabnam – shadnam, choyonak – uoynak, kerak – nerak, dars – dors, pechka – chechka, rasmda – rasumda, mushukcha - mushuk). Har  ikkala holatda ham bir xarakatdan ikkinchisiga o‘tish xarakatlarni ketma – ket bajarishdagi qiyinchiliklar kuzatilib, bu kinetik xatoliklarga olib keladi. Kinetik xatoliklar tabiati yozuv jarayonining ko‘ruv xarakat bo‘g‘inida yashirinadi. Ular bolani grafik belgilari bo‘yicha harf beliglarini farqlay olmasligi bilan tushuntiriladi.

Bunday xatoliklarni paydo bo‘lishi mexanizmlari xaqidagi A.N.Kornev va I.N.Sodovnikovalar fikrilarini keltirishimiz mumkin: “Bolalarda harf shaklining turg‘un xarakatlari formulasi juda sekin shakilanadi. Xar bir harfini yozish avtomatlashmagan va ongli nazoratini talab qiladi. Bunday xatoliklar ko‘pincha yozuv sifatiga past kollegrafik munosabatga mos kelib bu bolalarda ko‘ruv – motor koordinatsiyasining buzilish va praksis shakllanmaganliginidan dalolat beradi”.

Bir xil yoki o‘xshash elementlardan tashkil topgan, fazoda turlicha joylashgan optik jihatdan o‘xshash harflarini almashtirilishi bolalarda kamroq 6,7 % uchradi. (bor – dor, obuna – oduna, mashina – matina) o‘quvchilar ishlaridagi optik jihatdan o‘xshash harflarini almashtirilishi ko‘ruv gnozisi, analizi va sintezi, ko‘ruv – fazoviy idrokini rivojlanmaganligi bilan bog‘liqdir.

Harflarini oynavand yozuvi 2 - sinf o‘quvchilari uchun to‘liq xos bo‘lgan umumiy xatoliklarini faqatgina 1,3 % ni tashkil etdi. Oynavand yozuv kamchilik bolalarda e,s,g, kichik harflarida va Z,YE,YO,S,Y katta harflarini yozilishida

kuzatildi. (Yomg‘ir – Zmg‘ir, Zamin – Eamin, Sasha - Easha). Harflarni oynavandyozuvini sababi “O‘ng-chap” tushunchalarini bilan bog‘liq ravishda harfdlarini fazoviy joylashuvini noto‘g‘ri farqlash xisoblanadi.

**3- diagramma**




**Matndan gaplarni ajrata olmaslik bilan bog‘liq xatolar**

**4- jadval**

| № | **Yozuvdagi xatoliklar** | **% ko‘rsatkichida** |
|---|---|---|
| 1 | Gap oxirida nuqtaning yo‘qligi | 11,8% |
| 2 | Bosh harflarniyo‘qligi | 7,5% |
| 3 | Nuqtani keraksiz joyga qo‘yilishi | 1% |
| 4 | Bosh harfni keraksiz joyda yozilishi | 0,7; |
|  | Jami | 21% |

4-jadvalda matndan gaplarni ajrata olmaslik bilan bog‘liq xatoliklar ko‘rsatilgan, tekshirish natijalari keltirilgan.

Bu xatoliklarga gaplarda nuqta va bosh harflarini yo‘qligi yoki bosh harf va nutqni gap o‘rtasida o‘rinsiz ishlatilishi kuzatiladi. Ular o‘ziga xos xatoliklarini 21 % tashkil etdi. Biz R.D.Triger va R.I.Lalayevalarning bu xatoliklarini sababi o‘quvchilar tafakkurining ajralmasligi rejasizligi xaqidagi g‘oyalarga ajratamiz. Bu xatoliklarda bosh harflarning yo‘qligi o‘rtacha 7,5 % ni, gap oxirida nuqta qo‘yilmaganligi 11,8 % tashkil etdi. Ko‘pincha yozma ishlarda gap chegarasi

ko‘rsatilmasdan bir nechta gaplar birlashtirilgan. Qator xollarda bolalar gap chegarasini bildiruvchi vositalardan birini qo‘llashgan.

Bolalar tomonidan bosh xaflarni gap o‘rtasida yozish yoki o‘rinsiz nuqta qo‘yish, gap boshida bosh harflarni qo‘llamaslik va gap oxirida nuqta qo‘ymaslikka qaraganda kamroq uchrab umumiy xatoliklardan 1 % inigina tashkil etdi.

**4-diagramma**




**Fonematik idrok yetishmovchiligi bilan bog‘liq yozuvdagi xatoliklar**

**5-jadval**

| № | **Yozuv xatoliklari** | **% ko‘rsatkichida** |
|---|---|---|
| 1 | Undoshlarni jarangli jarangsizlariga qorishtirish | 5,2% |
| 2 | Affrikatlar va ularning komponentlarini almashtirish | 3,4% |
| 3 | Lablangan unlilarni almashtirish | 2,3% |
| 4 | Til orqa tovushlarni almashtirish | 1,2% |
| 5 | Sonor undoshlarni almashtirish | 1,7% |
| 6 | Sirg‘aluvchi-shovqinli undoshlarni almashtirish | 2,2% |
| | Jami | 16% |

5-jadvalda fonematik idrok yetishmovchiligi bilan bog'liq yozuvdagi xatoliklar ifodalangan.Fonematik idrokini yetishmovchiligi bilan bog'liq xatoliklar 16 % tashkil etdi. So'zlarda jarangsiz undoshlarini so'zlarda jarangli juftlari bilan almashtirilishi o'ziga xos xatoliklarini 5,2 % tengligini ko'rsatdi. (gul - kul, asbob – aspob, andoza – andosa, shaftoli, saftoli). Juft undoshlarini almashtirilishin tahlili tekshirilayotgan o'quvchidarda undosh tovshularini to'liq jarangsizlashuviga yoki jarnglanishiga olib kelmasligini ko'rsatdi.

Affrikat va ularning komponentlarini alshmatirilishi ko'p uchramay o'quvchilarda kuzatilgan xatoliklarini 3,4 % tashkil etdi (jo'ja – cho'cha, kech - kesh).

Lablangan undoshlarni almshtirilishi 2,3 % holatda kuzatildi (ro'mol-romol, tovuq-tovoq, o'tov-atov, qurbaqa-qarbaqa)

Sonor undoshlarni almashtirilish umumiy xatoliklarning 1,7% tashkil etdi(chiroyli-chiloyli, tarvuz-talvuz, raketa-laketa).

Shovqinli va sirg'aluvchi undoshlarni almashtirilishi umumiy xatoliklarning 2,2% dan oshmadi. (anjir-anzir, quyoshli-quyosli, hushyor-husyor)

Til orqa undoshlarni almashtirilishi umumiy xatoliklarning 1,2% tashkil etdi (no'xot-nukot, paxtapakta).

**5-diagramma**



**Gap tuzilishini tahlil qilishni shakllanmaganligi bilan bohliq yozuvdagi kamchiliklar**

**6- jadval**

| № | **Yozuvdagi xatoliklar** | **% ko‘rsatkichida** |
|---|---|---|
| 1 | Old qo‘shimchalarni so‘zlarga qo‘shib yozish | 3,7% |
| 2 | So‘zlarni ajratib yozilishi | 1% |
| 3 | So‘zlarni bir-biriga qo‘shib yozish | 1,2% |
| 4 | Qo‘shimchalarni so‘zlardan ajratib yozish | 2,6% |
| 5 | Kontaminatsiya (ikki o‘xshash so‘z va iboralarni qo‘shib, yangi so‘z hosil qilish) | 0,5% |
|  | Jami | 9% |

Gap tuzilishini tahlil qilishni shakllanmaganligi bilan bog‘liq xatoliklar yozuvdagi xatoliklar ichida eng kam foizni (9%) tashkil etdi. Bolalar yozuvda so‘zlarni morfemalar, bo‘g‘inlar va morfemalarga ajratishga qiynaldilar. Til analizi va sintezidagi qiyinchiliklar so‘z chegarasini noto‘g‘ri belgilashga olib keldi. Bundagi ko‘pgina xatoliklar old qo‘shimchalarni so‘zlarga qo‘shib yozish va qo‘shimcha va so‘zlarni ajratib yozishda kuzatildi. Bolalarda ikkita tanish so‘zni qo‘shib yoki ajratib yozish kamroq kuzatildi. Qo‘shimchalarni oldingi va keyingi so‘zlar bilan qo‘shib yozish 3,7% tashkil etdi (be habar- behabar, no qulay- noqulay, bog‘da-bog‘ da, sedanali-sedana li).

Qo‘shimchalarni so‘zlardan ajratib yozish 2,6% holatda uchradi. So‘zlarni qo‘shib yozish holati 1,2% da so‘zlarni o‘zaro qo‘shilib ketishi kuzatildi (mana bunday- mnabunday, daryodan baliq ovladi- daryodanbaliqovladi)(24-rasm) So‘zlarni qo‘shib yozilishi 69 bet.

So‘zlarni ajratib yozilishi odatda bosh harf yoki bo‘g‘in old qo‘shimchasiz so‘zlarda, bog‘lovchi, qo‘shimcha, olmoshni eslatganda kuzatildi.(o‘zlik-o‘z lik, undosh-u ndosh, hushvaqt-hush vaqt).

Bo‘g‘in analizi va sintezini qo‘pol buzilishi kontalinatsiyalarda (o‘xshash 2 so‘z va iboralarning chatishuvi natijasida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi) 0,5% namoyon bo‘ldi, bunda yonma-yon turgan so‘zlarning qismlari qo‘shib yozilishi kuzatildi. (kurakni oldi-kuraknoldi, dalaga keldi- dalagaledi).

Biz yana T.V.Axutina va O.B.Inshanovalar taklif etgan metodikalar asosida tahlil qilib, bir qancha motor harakterdagi yozuv buzilishlarini qayd etdik. Shunday yozuv buzilishlaridan biri -- harflarni grafik tasvirlashni noaniqligi – harflarni balandligini, o‘lchamini buzilganida, ularni elementlarini fazoda noto‘g‘ri joylashtirishda aks etadi. Bunday xatoliklar yozuv buzilishiga ega o‘quvchilarning o‘rtacha 3,8% da uchradi.

**6-diagramma**




**Motor harakterdagi yozuv buzilishlari**

**7- jadval**

| № | Yozuvdagi motor kamchiliklar | % ko‘rsatkichida |
|---|---|---|
| 1 | Harflarni grafig tasvirlashni noaniqligi (harflarni balandligi, o‘lchami, fazoda noto‘g‘ri joylashuvidagi buzilishlar) | 3,8% |
| 2 | Harfning grafig obrazini izlashdagi kamchilik | 3,5% |
| 3 | Qo‘shni harfda mavjud harfning shunday elementini yozmaslik | 2,9% |
| | Jami | 10,2% |

Motor harakterdagi keyingi yozuv buzilishi harfning grafik obrazini izlash bo‘lib, u grafik belgini tanlashdagi tebranish bilan bog‘liq va u o‘rtacha 3,5% tashkil etdi.

Motor harakteridagi yozuv buzilishlarining uchinchi turi qo‘shni harfda mavjud harfning shunday elementini yozmaslik hisoblanadi. Bunday xatoliklar yozuv buzilishiga ega o‘quvchilarning 2,9 tashkil etdi.

Demak, o‘quvchilarning yozma ishlarini tahlil qilishda ko‘p va turli-tuman xatoliklar aniqlanib, ular yozuv ko‘nikmasini shakllanishini ta’minlovchi qator oliy psixik funksiyalarning shakllanmaganligi oqibatida kelib chiqadi. Bizning tadqiqotimizning asosini tashkil etuvchi optik va motor yozuv buzilishlarida alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Grafik axborotlarni egallash sifati va tezligi ko‘ruv idroki, diqqati va nazoratining shakllanganlik darajasiga bog‘liq.

Ko‘ruv idroki orqali o‘zlashtiriladigan bilimlar sifatini ko‘ruv diqqati xususiyatini yuqori darajada rivojlanishi belgilaydi. Noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishda uni tuzatish talab qilinib, u ko‘ruv nazoratining yetarlicha rivojlanishisiz imkonsizdir.

Optik tasavvurlarning to‘liqligi va aniqligi ko‘ruv idrokining shakllanganligiga bog‘liq. Harf murakkab kompleks qo‘zg‘atuvchi bo‘lib, hajm, belgi va uning elementlarini yo‘nalishi va soni xizmat qiladi. Ko‘ruv idrokining yuzaki, ajralmas, uzuq-yuluq harkteri va diqqatni yetarlicha shakllanmaganligi barcha harflar elementlarida optik jihatdan o‘xshash harflarni almashtirilishiga olib keladi.

Yozuv grafik belgilarning fazoviy harakteristikalarini qayta ishlashga, harf va ularning elementlarini fazoviy joylashuvini o‘rnatishga asoslangan. Yozuvning sifati sezilarli darajada o‘quvchilardagi optik-fazoviy idrokni shakllanganligi darajasiga bog‘liq.

Ushbu funksiyalarning takomillashmaganligi daftar varog‘i yuzasida mo‘ljal olishni buzilishiga, harflarni fazoviy aks ettirishdagi qiyinchiliklarga, turli optik belgilariga ko‘ra o‘xshash harflarni almashtirilishiga, oynavand yozuvni paydo bo‘lishiga olib keladi. Grafik ko‘nikmalarning o‘ziga xosligi shundaki har bir harakat bilan harflarning ma’lum ma’naviy ahamiyati bog‘lanadi. Intellektual ko‘nikma sifatida yozuv bolalar tomonidan harflarning grafik obrazini aniq o‘zlashtirishni talab qiladi, harflar va ularning komplekslarini aks ettirishdagi qo‘l

harakatlarini bir butunligini anglashdir. Bu faoliyatlarni amalga oshirish uchun harflarning mavjud optik xususiyatlarini belgilashga imkon beruvchi optik analiz, sintez, qiyoslash, umumlashtirish va boshqa tafakkur operatsiyalarini shakllantirish zarur. Bu tafakkur operatsiyalarining shakllanmaganligi yozuvda grafik jihatdan o‘xshash harflar o‘rtasidagi farqlarni aniqlashda qiyinchilik tug‘diradi.

Yozuv maxsus ko‘ruv-harakat bo‘g‘ini bilan harakterlanadi. Murakkab koordinatsiyali yozuv harakatlarini bajarish qaysidir darajada praksisni shakllanganlik darajasini, ko‘ruv-motor koordinatsiyasi holatini belgilaydi. Bu funksiyalarningetarlicha shakllanmaganligi yozuv sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi: bolalarda harf tuzilishini o‘zlashtirish jarayoni qiyin kechadi, grafik belgilar va so‘zlar o‘rtasidagi oraliq masofa, harflarni fazoda joylashuvi va ularni tashkil etuvchi elementlar soni, ularning proporsiyasi buziladi.

Ko‘pchilik o‘quvchilarning yozuvi grafik shakllarning noturg‘unligi, harflarni uzun, cho‘ziqligi va qiyshiqligi bilan harakterlanadi. Grafik belgilar ko‘pincha shakli o‘zgargan, chiziqlarning qiyshiqligi holida yozilgan. Qator hollarda harflarni yozishda qo‘l harakatlarini noto‘g‘ri amalga oshirilishi, harf va ularning elementlarini noto‘g‘ri bog‘lanishi kuzatiladi. Yozuv jarayoni qo‘l harakatlarining bosimi bilan harakterlanadi, bir grafik elementdan boshqasiga ravon o‘tishdagi xatoliklar, yozuvning sekinligi, yozuv tezligi sezilarsiz darajada tezlashganda ham keskin xunuklashuviga olib keladi.

Demak, bolalarda optik va motor yozuv buzilishlari: ko‘ruv idroki va diqqatini shakllanmaganligi, optik va fazoviy idrokni yetarlicha rivojlanmaganligi, ko‘ruv analizi, sintezi, qiyoslash, umumlashtirish va boshqa tafakkur operatsiyalarini amalga oshirishdagi qiyinchiliklar, praksis va ko‘ruv-motor koordinatsiyalarining takomillashmaganligi sababli kelib chiqadi.

**7-diagramma**




## 2. Yozuv ko‘nikmalarini egallashni ta’minlovchi oliy psixik-ruhiy funksiyalarni tadqiq qilish natijalari

### O‘quvchilarning ko‘ruv diqqati holati

Ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 3 ball olgan o‘quvchilar (8 ta optik va motor yozuv buzilishlariga ega bolalar va 21 ta yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan bolalar) diqqatning turli xususiyatlarini (ko‘lami, turg‘unligi bo‘linishi, to‘planishi) shakllanganligining yuqori darajasini ko‘rsatdi, ish qobiliyatining yuqori ekanligini aniqladi. Ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 2 ball olgan o‘quvchilar (12 ta optik va motor yozuv buzilishlariga ega bolalar va 9 ta yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan bolalar)ni diqqat xususiyatlari o‘rta darajada shakllanganligini ko‘rsatdi. Diqqat ko‘lami bir qancha tor, turg‘unligi, to‘planganligi va taqsimlanishi birinchi guruh o‘quvchilariga nisbatan pastligini ko‘rsatdi. Ish qobiliyati ham birinchi guruhga nisbatan pastligi aniqlandi. Ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 1 ball olgan o‘quvchilar (optik va motor yozuv buzilishlariga ega 10 ta bola)da diqqat xususiyatlarini past darajada shakllanganligi aniqlandi: ko‘lamning torligi, turg‘un emasligi, taqsimlanishi, turlanganligining past darajasi, oson chalg‘ishi.

Ish qobiliyati juda past tezda charchashi kuzatildi. Optik va motor yozuv buzilishlariga ega bolalar barcha eksperiment topshiriqlarini qiyosiy guruhdagi bolalarga nisbatan past darajada bajarishdi. Yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilar turli xil ko‘ruv diqqati kamchiliklarini aniqladi. Ular ixtiyoriy diqqatning

turg‘unsizligida, uning ko‘lamini sezilarli darajada torligida, taqsimlanishining buzilganligida namoyon bo‘ldi.

Shuni qayd etish lozimki, 2-topshiriqni sifatli bajarishi bilan farqlangan ushbu toifa bolalarda ko‘ruv harakat tayanchi orqali chiziqlarni o‘tkazish taxminiy mo‘ljal olishga harakat qilish hisoblanadi.

Yozuv o‘zgarishlariga ega bo‘lmagan bolalarda ko‘ruv diqqat holatini o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanmadi.

Bolalardagi ko‘ruv diqqatini o‘rganish natijalari 8-jadvalda keltiriladi.

**O‘quvchilarning ko‘ruv diqqatini tekshirish natijalari**

**8-jadval**

| Topshiriq | Optik va motor yozuv buzilishiga ega bolalar | | | Yozuv buzilishiga ega bo‘lmagan bolalar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | To‘plangan ballar | | | | | |
| | 3ball | 2ball | 1ball | 3ball | 2ball | 1ball |
| 1 | 4ta | 4ta | 4ta | 8ta | 3ta | – |
| 2 | 1ta | 6ta | 4ta | 4ta | 4ta | – |
| 3 | 3ta | 2ta | 2ta | 9ta | 2ta | – |
| Jami ballar soni | 8ta<br>26,6% | 12ta<br>40% | 10ta<br>33,4% | 21ta<br>70% | 9ta<br>30% | – |

**8-diagramma**



## O‘quvchilarning ko‘ruv idroki va ko‘ruv gnozisi (tanishi) holati

Ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 3 ball olgan o‘quvchilar optik va motor yozuv buzilishiga ega 4 ta va yozuv buzilishiga ega bo‘lmagan 26 ta o‘quvchilarda ko‘ruv gnozisini yuqori darajada shakllanganligini ko‘rsatdi: murakkab idrok sharoiti asosida predmetlarni tasvirini va ulardagi mavjud belgilarini ajratish , ko‘ruv analizi va sintezini egallash qobiliyati .

Ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 2 ball olgan o‘quvchilar (18 ta optik va motor yozuv buzilishlariga ega bo‘lgan 4 ta yozuv buzishga ega bo‘lmagan bolalar)da ko‘ruv gnezisini o‘rta darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Murakkab idrok sharitlarida predmet tasvirlarini tanish ularni mavjud va mavjud bo‘lmagan belgilarini aralashtirish asosida amalga oshirildi. Ko‘ruv analiz va sintezini amalga oshirish qiyinchiliklar tug‘diradi.

Ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 1 ball olgan o‘quvchilar (8 ta optik va motor yozuv bo‘zilishiga ega o‘quvchilar)da ko‘ruv gnozisini rivojlantirganligini past darajasi aniqlandi. Predmetli tasvirlarni tanish murakkab idrok sharoitida mavjud bo‘lmagan belgilar asosida amalga oshirilib, taxminan topish xarakteriga ega bo‘lgan , ko‘ruv analizi va sintezini amalga oshirish yaqqol qiyinchiliklar tug‘dirgan. Tasvirni ko‘rib, idrok etish qator zarur shartlarga to‘g‘ri idrok etish uchun kompleks qo‘zg‘atuvchi hisoblanadi: obyektlarning majud belgilarini ajratish ular o‘rtasida munosabatlar o‘rnatish, obyektni ko‘ruv obrazini shakllantirishga yordam beradigan ularning sintezi: optik tezlikka ega belgilarni to‘xtatishi, ammo ular muhim ahamiyatga ega emas. Xatoliklarni korreksiyalash oldindan tasvirlarni baholashdayoq boshlanadi (belgilarni chuqur optik analiz va sinteziga asoslanmasdan) Optik va motor yozuv buzilishlariga ega bolalarda sanab o‘tilgan shartlar ko‘p holatlarda kuzatilmagan. Murakkab idrok sharoitda tasvirni tanish ularda sezilarli qiyinchiliklar tug‘dirgan; idrok yuzaki taxminiy bo‘lgan. Bu toifa bolalarda idrok yo‘nalishining o‘zgarishi, fikrlash ko‘lami va ko‘ruv idrokining uzuq-yuluqligi ko‘rsatiladi.

Yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan uquvchilarda ko‘ruv gnezisining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanmadi. Ko‘ruv idrokini o‘rganish natijalari 4-jadvalda keltirildi.

**Ko‘ruv idroki va ko‘ruv gnozisini tekshirish natijalari**

**9-jadval**

| Topshiriq | Optik va motor yozuv buzilishiga ega bolalar | | | Yozuv buzilishiga ega bo‘lmagan bolalar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | To‘plangan ballar | | | | | |
| | 3ball | 2ball | 1ball | 3ball | 2ball | 1ball |
| 1 | 3ta | 5ta | 3ta | 8ta | 2ta | – |
| 2 | 1ta | 6ta | 2ta | 4ta | 2ta | – |
| 3 | | 4ta | 2ta | 6ta | | – |
| 4 | | 3ta | 1ta | 8ta | | |
| Jami ballar soni | 4ta 13.3% | 18ta 60% | 8ta 26,7% | 26ta 86,6% | 4ta 13,4% | – |

**9-diagramma**



**O‘quvchilarni optik materialdagi tafakkur operatsiyalarining holati**

Ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 3 ball olgan o‘quvchilar (25 ta yozuv bo‘zilishlariga ega bo‘lmagan o‘quvchilar) optik materialda umumlashtirish, tizimlashtirish, tahlil qilish operatsiyalarini yuqori darajada rivojlantirganligini ko‘rsatishdi.

Ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 2 ball olgan o‘quvchilar ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 2 ball olgan o‘quvchilar (25 ta optik va motor yozuv buzilishlariga ega va 5 ta yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan o‘quvchilar) ko‘rsatilgan. Materiallarda umumlashtirish, tizimlashtirish, tahlil qilish operatsiyalarini o‘rta darajada rivojlantirganligini ko‘rsatadi.

Ko‘p topshiriqlar bo‘yicha 1 ball olgan o‘quvchilar ( 5 ta optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilar) da optik materialda umumlashtirish, tizimlashtirish, tahlil qilish operatsiyalari rivojlanganligining past darajasini ko‘rsatadi. Barcha eksperimental topshiriqlarni optik va motor buzilishlariga ega o‘quvchilar yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan o‘quvchilarga qaraganda yomonroq bajarishdi.

Ko‘rib idrok qilinayotgan obyektlarning belgilarini qayd etish, ajratish va umumlashtirish o‘quvchilardagi bilish malakalariga bog‘lik optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilarda bunday belgilarga, predmetlarning tashqi belgilariga ancha sezilarli munosabatda bo‘lishgan.

Bunday holatlarda eng avvalo predmetning tashqi belgilarini qayd etuvchi idrokning ahamiyati katta bo‘lib, ko‘pincha bu unga xos bo‘lmagan. Umumlashtirish jarayoni mavjud va mavjud bo‘lmagan belgilarining aralashmasi asosida qurilgan.

Umumlashtirish jarayonida yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan o‘quvchilarda o‘quv jarayonida to‘plangan tasavvurlarga tayanish aniqlangan; ularning tasavvurlari yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilarnikiga qaraganda ancha mazmunli va aniq bo‘lgan.

Yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan o‘quvchilarda ko‘rib idrok etilgan obyektlarni ichki, mavjud belgilarini tizimlashtirish alohhida o‘rin egallagan.

Rasmlarga yetishmayotgan detallarni qo'shishdagi qiyinchiliklar optik va motor yozuv buzilishlariga ega o'quvchilarda ko'ruv analizini past darajada shakllanganligidan dalolat beradi. Bu o'quvchilarning tahlil qilish faoliyati uchun qarashlariga ko'ra belgilar ko'lamining torligi xosdir. Yozuv buzilishlariga ega bo'lmagan o'quvchilarda mavhu aqliy tahlili aniqlandi. Optik materiallarda tafakkur operatsiyasini o'rganish natijalarini 10-jadvalda keltirildi.

**O'quvchilarning optik materialdagi tafakkur operatsiyalari holati.**

**10-jadval**

| Topshiriq | Optik va motor yozuv buzilishiga ega bolalar | | | Yozuv buzilishiga ega bo'lmagan bolalar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | To'plangan ballar | | | | | |
| | 3ball | 2ball | 1ball | 3ball | 2ball | 1ball |
| 1 | | 6ta | 1ta | 7ta | | – |
| 2 | | 9ta | 1ta | 8ta | 3ta | – |
| 3 | | 10ta | 3ta | 10ta | 2ta | – |
| Jami ballar soni | | 25ta 83,3% | 5ta 16,7% | 25ta 83,3% | 5ta 16,7% | – |

**10-diagramma**




**O'quvchilarning statik va dinamik praksisi holatini tekshirish natijalari**

Ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 3 ball (4 ta optik va motor yozuv buzilishlariga ega va 22 ta yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan o‘quvchilar) olgan o‘quvchilar yuqori darajada statik va dinamik praksisni shakllanganligiga ega bo‘lmagan. Statik praksis bo‘yicha topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar zarur holatilarini saqlash va topishni , uni bir qo‘ldan boshqasiga o‘tkazishni muvaffaqiyatli bajarishdi. Dinamik praksis bo‘yicha topshiriqlarni bajarishda aniqlik, koordinatsiyaviylik, xarakterga oson kirishish aniqlandi.

Ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 2 ball olgan o‘quvchilar (19 ta optik va motor yozuv buzilishlariga ega bo‘lgan va 8 ta yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan o‘quvchilar)da dinamik va statik praksisni o‘rta darajada shakllanganligi aniqlandi. Praksis bo‘yicha topshiriqlarda o‘quvchilar zarur holatni topish, saqlash va uni bir qo‘ldan ikkinchi qo‘lga o‘tkazishda qiyinchiliklarga uchradi. Dinamik praksis bo‘yicha topshiriqlar yetarlicha koordinaqiyaga ega bo‘lmagan holda bajarildi, ularning amalga oshirishida sezilarsiz kamchiliklar kuzatildi.

Ko‘pgina topshiriqlardan 1 ball olgan o‘quvchilar ( 7 ta optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilar) statik va dinamik praksisni past darajada rivojlantirganligini ko‘rsatdi. Statik praksis bo‘yicha topshiriqlarni bajarishda zarur holatni topish va saqlashda, uni bir qo‘ldan ikkinchisiga o‘tkazishda yaqqol qiyinchiliklar kuzatildi. Dinamik praksisni o‘rganishda koordinaqiya va harakatlarni aniq kamchiliklar aniqlandi.

Eksperiment natijalari optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilarning statik va dinamik praksisi sifatida o‘ziga xosliklardan dalolat beradi. Bu bolalarda praksis holati bo‘yicha topshiriqlarni bajarishda barmoqlarning “xavotirligi” 9”notinchligi”) ularning bosimi, yengil titrashi ba’zi hollarda sezilarli – tremor kuzatildi. Ancha murakkkab kambinatsiyalarni amalga oshirishda ko‘pincha zarur holatni uzoq izlash barmoqlarning “bo‘ysunmasligi” aniqlandi. 1 va 5, 2 va 5 barmoqlarni ko‘tarish kabi topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklar aniqlandi. Ko‘pgina bolalar tadqiqotchi barmoqni alohida harakatlarni bajara olmadi: ular tartibsiz, birdaniga bir necha barmoqlar bilan bajarishga, ko‘pincha boshqa qo‘li bilan yordam berishga harakat qilishdi.

Harakatlarni dinamik tashkil etishda ham qiyinchiliklar kuzatildi. Bolalar bir harakatga o‘tishda , ularni ushlashga va berilgan ketma-ketlikda bajarishga qiynalishdi, ular tezda charchashdi, noaniq va keraksiz harakatlar soni o‘rtdi.

Harakatlar koordinatsiyasini o‘rganish bir vaqtda qo‘l panjalarida almashtirish harakatlarini bajarishda rovonlikni buzilishini aniqladi. O‘quvchilar bu harakatlar koordinatsiyasida qiynalishdi, har ikkala qo‘l uchun zarur holatni izlashda o‘zlariga ishonmadi ko‘pincha adashishdi. Ular yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan tengdoshlaridan ko‘ra ko‘proq har ikkala qo‘l harakatlarini ko‘rsatishdi, qator hollarda yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan bolalarda uchramaydigan harakatlar noaniqligini ko‘rsatishdi. Yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan o‘quvchilarda dinamik va praksis holatlarda sezilarli buzilishlar kuzatildi.

Statik va dinamik praksisni o‘rganish natijalari 6-jadvalda keltirilgan.

**O‘quvchilarning statik va dinamik praksis holatini tekshirish natijalari.**

**11-jadval**

| Topshiriq | Optik va motor yozuv buzilishiga ega bolalar | | | Yozuv buzilishiga ega bo‘lmagan bolalar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | To‘plangan ballar | | | | | |
| | 3ball | 2ball | 1ball | 3ball | 2ball | 1ball |
| 1 | 1ta | 9ta | 3ta | 8ta | 3ta | – |
| 2 | 3ta | 10ta | 4ta | 14ta | 5ta | – |
| Jami ballar soni | 4ta 13,3% | 19ta 63,3% | 7ta 23,3% | 22ta 73,3% | 8ta 26,4% | – |




**O‘quvchilarning ko‘ruv-fazoviy idroki va ko‘ruv-motor koordinatsiyalari holatini tekshirish natijalari**

Ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 3 ball to‘plagan o‘quvchilar (4ta optik va motor yozuv buzilishlariga ega va 19 ta yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan o‘quvchilar) ko‘ruv fazoviy idroki va ko‘ruv –motor koordinatsiyalarini yuqori darajada shakllanganligini ko‘rsatishdi: ular fazoda shaklni takrorlashni , kichraytirilgan va o‘girilgan geometrik shakllarni tanishni, kontur tasvirni ajratishni muvaffaqiyatli bajarishdi: shakllar hajmi va shtrix yo‘nalishlarni saqlagan holda to‘g‘ri ko‘chirilgan: chiziqlar to‘g‘ri va ishonchli.

Ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 2 ball to‘plagan o‘quvchilar (13ta optik va motor yozuv buzilishlariga ega, 11ta yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan)da 1-2ta xatoliklar mavjud. Hajm, proporsiya, shtrixlar yo‘nalishini bajarishda noaniqliklar mavjud. Shakllar ajratilgan maydonda to‘g‘ri joylashtirilgan. Chiziqlar ozroq qiyshaygan, har doim ham o‘zaro to‘g‘ri birlashmagan.

Ko‘pgina topshiriqlar bo‘yicha 1 ball olgan o‘quvchilar (13 ta optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilar)da ko‘ruv-fazoviy idrok va ko‘ruv-motor koordinaqiyalarini past darajada shakllanganligi aniqlandi: bolalar tekislikdagi shakllarni takrorlashda kichraytirilgan va o‘girilgan shakllarni tanishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Shakllarni ko‘chirishda hajmi proporsiyasi, shtrixlar yo‘nalishi buzilgan; chiziqlar tekis emas, uzilgan, titragan.

Tadqiqot optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilarni tekshirishni ko‘ruv-fazoviy idrokni shakllanganligining past darajasini, grafik obyektlarni o‘zaro munosabati va fazoviy xususiyatlari haqidagi tasavvurlarning noaniqligini ko‘rsatdi. Ko‘ruv-fazoviy idrokni rivojlanishini orqada qolishi noodatdagi rakursdagi shakllarni tanishdagi, grafik tasvirlarni ajratmasdan ko‘ruv-fazoviy idrokidagi qiyinchiliklarda, grafik elementlarning o‘rtasidagi fazoviy munosabatning farqlanganligida, idrok etiladigan obyektlar va murakkab sharoitlardagi fazoviy idrok sifatini yomonlashuvi aniqlandi. Ko‘rsatilgan kamchiliklar darajasi ko‘ruv-motor koordinatsiyalarini yetishmovchiligi bilan bog‘liq fazoviy analiz va sintezni shakllanganligida sezilarli darajada ortdi.

Grafik topshiriqlarni bajarishda bu toifa bolalarga to‘g‘ri va ishonchli chiziqlar o‘tkazishdagi qiyinchiliklar, hajm, proporsiyalar, shtrixlar yo‘nalishining buzilishi yaqqol aks ettirilgan burchakli va chiziqli dizmetriyalar, ulanmagan chiziqlar va kesishma nuqtalar, shakllarning fazoviy joylashishini buzilishi, shakllarni o‘z kvadratlari ichida surilishi xosdir.

Tizimli tipologik xatolar obyektni fazoviy qurilishini umumiy tizimini buzilishiga, shaklni fazoda cho‘zilishiga, butun obyekt tegishli qismlarni bir-biriga aralashib ketishiga olib keldi.

Ko‘chirib rasm chizishda uzuq-yuluqlik yoki rasmni mantiqsiz ifodalishi kuzatildi.

Yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan o‘quvchilarda: rasmni mahsulli ifodalash, shakllarning fazovi joylashuvini, o‘lchamlarini saqlash kuzatildi, qo‘pol koordinatsiyaviy va tizimli-tipologik xatoliklar kuzatilmadi. Eksperimentar topshiriqlarni bajarish sifati optik va motor-yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilarda yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan o‘quvchilarga qaraganda pastligi aniqlandi. Bolalardagi ko‘ruv-fazoviy idrok va ko‘ruv-motor koordinatsiyalarini tadqiq qilish natijalari 7-jadvalda aks ettirilgan.

**O‘quvchilarning ko‘ruv-fazoviy idroki va ko‘ruv-motor koordinatsiyalari holatini tekshirish natijalari**

**12-jadval**

| Topshiriq | Optik va motor yozuv buzilishiga ega bolalar | | | Yozuv buzilishiga ega bo‘lmagan bolalar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | To‘plangan ballar | | | | | |
| | 3ball | 2ball | 1ball | 3ball | 2ball | 1ball |
| 1 | | 1ta | 1ta | 2ta | 1ta | – |
| 2 | | 2ta | 2ta | 3ta | | – |
| 3 | | 3ta | 3ta | 1ta | 3ta | – |
| 4 | 1ta | 1ta | 1ta | 4ta | 4ta | – |
| 5 | 2ta | 3ta | 3ta | 5ta | 4ta | – |
| 6 | 1ta | 3ta | 3ta | 4ta | 4ta | – |
| Jami ballar soni | 4ta 13,4% | 13ta 43,3% | 13ta 43,3% | 19ta 63,3% | 16ta 53,4% | – |

**12-diagramma**




Ma’lumki, optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilarida diqqatning o‘rta darajasi yozuv buzilishlariga ega bo‘lmagan bolalarnikidan pasti. Barcha topshiriqlarning bajarilishi natijalarini statistik qayta ishlanishi, shunga o‘xshash

tarzda olib borildi. Statistik tahlil natijalari ishonchliligini barcha mezonlar boʻyicha tasdiqladi. Barcha topshiriqlarni bajarishda optik va motor yozuv buzilishlariga ega oʻquvchilar qiyosiy guruh oʻquvchilaridan koʻra farq qilishini koʻrsatdi. Optik va motor yozuv buzilishlariga ega oʻquvchilarning nonutqiy funksiyalarini oʻrganish, bu funksiyalarning oʻziga xos xususiyatlarini , adabiyotlardagi bu funksiyalarning oʻziga xos xususiyatlarini, adabiyotlarda bu funksiyalarning shakllanmaganligi yozuv koʻnikmasini toʻlaqonli shakllanishiga toʻsqinlik qilishi haqidagi maʼlumotlarni tasdiqlab aniqladi.

Optik va motor yozuv buzilishlariga ega oʻquvchilar tasviriy faoliyatni egallashdagi qiyinchiliklar bilan yozuv xususiyatlarini qarshi qoʻyish quyidagi xulosaga kelish imkonini berdi.

2-sinf oʻquvchilaridagi yozuv buzilishlarida koʻp va turli-tuman oʻziga xos xatoliklar aniqlandi. Buzilishlarni turli darajada namoyon boʻlishiga qaramasdan, koʻpchilikda barcha asosiy tur xatoliklar kuzatildi. Optik va motor xatoliklar koʻp tarqalgan xatoliklardan biri boʻlib, umumiy oʻziga xos xatoliklarning 24% ni tashkil etadi.

Koʻrsatilgan grafik faoliyatlarda oliy psixik funksiyalar xususiyatlarini paydo boʻlish birligi aniqlangan. Optik tasavvurlarning toʻliqligi va aniqligi koʻruv diqqati va idrokini rivojlanganlik darajasiga bogʻliq. Bu funksiyalarning xususiyatlari Optik va motor yozuv buzilishlari grafik faoliyatlarida oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi. Koʻruv idroki yuzaki . taxminiy xarakterga ega Toʻlaqonli koʻruv obrazining yoʻqligi yozuvda va rasm chizishda grafik obrazlardagi xatoliklarga olib keladi. Optik oʻxshash obyektlarni farqlashni aniq emasligi yozuvda optik jihatdan oʻxshash harf va soʻzlarni almashtirishga olib keladi Rasmlarda optik jihatdan oʻxshash obyektlarni shakli optik idrokni notoʻliqligi va noaniqligi koʻruv diqqati va nazoratini takomillashmaganligi oqibatida oʻxshatilishiga sabab boʻladi.

Oʻquv va rasm chizish sifati qaysidir maʼnoda koʻruv nazariy idrokni rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Yozuv va rasm chizish grafik obyektlarni fazoviy xarakteristikasini qayta aniqlashga , uning fazoviy aloqasini oʻrnatishga asoslanadi. Tekshiriladigan guruh bolalarda optik yozuv buzilishlari sabablardan

biri hisoblangan ko‘ruv-fazoviy idrok va tasavvurlarning yaqqol buzilishi kuzatilgan. Bu daftar varag‘idagi fazoda mo‘ljal olishda, harfni fazoda ifodalashda qiyinchilik uchraydi. Grafik o‘xshash harflarni turli optik belgilarga ko‘ra almashtirishiga turli oynavand yozuvni paydo bo‘lishiga olib keladi.

Optik tahlil, sintez, qiyoslash, umumlashtirish va boshqa tafakkur operatsiyalari grafik faoliyatning ajralmas komponenti hisoblanib, tasvirdagi obyekt yoki harfni mavjud optik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ko‘rsatilgan tafakkur operatsiyalarining yetarlicha shakllanmaganligi grafik belgilar tuzilishi va tarkibini tahlil qilishda, grafik o‘xshash harflar (yozuvda) o‘rtasidagi farqlarni aniqlashda, predmet shakllarini tizimli berishni takomillashmaganida (rasm chizishda) o‘xshash shakllar va harflar haqidagi tasavvurlarni farqlashda qiyinchilikka uchraydi.

Yozuv va rasm chizish uchun zarur grafik ko‘nikmalar praksis ko‘ruv mator koordinatsiyalarini yetarli darajada rivojlanishini talab qiladi. Ko‘rsatilgan funksiyalarni tekshirilayotgan toifa o‘quvchilarda shakllanmaganligi yozuvda harf tuzilishini o‘zlashtirishdagi qiyinchilikda, fazoviy munosabat va tarkibiy elementni saqlay olmaslikda, grafik shakllarni turg‘un emasligida aks etadi.

Grafik faoliyatdagi ko‘rsatilgan funksional komponentlarni paydo bo‘lish birligini yozuv va rasm chizishda o‘rnatish optik va motor yozuv buzilishini tasviriy vositalarni qo‘llash orqali bartaraf etish bo‘yicha korreksion ish usullari yo‘nalish mazmuni va usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

### 3.Korreksion ish yo‘nalishi, mazmuni va usullari

Optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilar bilan olib borilayotgan korreksion ishlar qator tamoyillarga tayanadi. Yetakchi tamoyil etiopatogeniya tamoyil hisoblanadi: buzilishlar mexanizmi haqidagi bilim korreksion ishlar yo‘nalishini belgilaydi. Yozuv jarayoni bilan bog‘liq oliy psixik funksiyalarning shakllanmaganligi asosidagi yozuv kamchiliklarini buzilishi sifatida tushunib, biz bolalarda didaktik materiallarni asta-sekin murakkablashtirib zarur psixik funksiyalarni shakllantirdik.

**Ontogenetik tamoyil**. Oliy psixik funksiyalarni ontogenezda shakllanish qonuniyatlari va ketma-ketligini ko‘zda tutadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra ish soddadan murakkabga, qorishmalardan, rangga, butundan qismga talablariga ko‘ra qurildi.

**Tizimlilik tamoyili**. Tizimli komponentlari boshqa oliy psixik funksiyalar bilan o‘zaro alohida bo‘lgan yozuvni murakkab funksional tizim haqidagi tasavvurlarga tayanadi.

Bu tomoyilni amalga oshirish yozuvni to‘liq shakllanishiga imkon beruvchi o‘zaro aloqador birlik tizimlari sifatida tushinilishi bilan bog‘liq. Tekshirilayotgan bolalarda biz yozuvni butun hosil qilish sifatida shakllantirdik, grafik faoliyatni to‘laqonli bo‘lishini ta’minlovchi oliy psixik funksiyalarni rivojlantirdik.

Farqli yondoshuv tamoyili. Har bir o‘quvchini yozuv operatsiyalarini egallashga tayyorlashdagi psixofiziologik imkoniyatlarni hisobga oldi.

**Faoliyatlilik tamoyili**. Yozuvni faqat ma’lum faoliyatda mavjud tizim sifatida qabul qiladi. Yozuvni biz o‘quv faoliyatida shakllantirdik, chunki bu yoshdagi yetakchi faoliyatlarda hisoblanadi. O‘quvchilar bilan yozuv jarayonida ishtirok etuvchi psixik funksiyalarni rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borildi.

Topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish tamoyili. Korreksion pedagogik ish optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilarning “yaqin” rivojlanish zonasini” hisobga oladi. Oliy psixik funksiyalarni shakllantirish yozuvni amalga oshirish uchun zarur. Bu funksiyaning shakllantirishning7 o‘ziga xosligi korreksion ishga asta-sekin ancha murakkab materiallarni kiritishni boshlaydi. Topshiriqlar bolalar imkoniyatlarini va yaqin rivojlanish zonasini hisobga olishga asoslanadi.

Kichik ijtimoiy muhit bilan bog‘liqlik tamoyili. Bolani o‘rab turgan muhit xususiyatlarini hisobga olishni ko‘zda tutadi. O‘quvchilarda shakllantirilayotgan ko‘nikmalarni mustahkamlash bo‘yicha ishlarning katta qismi logoped, ota-onalar va pedagoglar boshchiligida amalga oshirildi. Ular uchun metodik seminarlar va maslahatlar berildi.

**Individual** (yakka) **yondashuv tamoyili**.. quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- bolaning o‘ziga xos xususiyatlariga mos ravishda ta’lim usullarini individuallashtirish logopedik ishlarni biz optik va motor yozuv buzilishlariga ega bolalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda olib bordik;
- o‘qitish tempini individullashtirish shuningdek (vaqti ko‘lamiga ko‘ra) yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish asosida yotgan psixik funksiyalarni rivojlantirish uchun individual ish reja tuzish.

Tashxis va tuzatish birligi tamoyili o‘quv jarayonining butunligini aks ettirdi. Korreksion ish bilan chuqur logopedik va psixologik tekshirish asosida tashkil etildi. Korreksion ta’limning har bir qadami uni o‘quvchiga ishning yakuniy maqsadini hisobga olgan holda ta’sir etish nuqtai nazariga ko‘ra baholandi.

Eksperimental ta’lim bolalarning ruhiy va nutqiy rivojlanishidagi o‘zgarishlar dinamikasini ko‘zda tutdi.

Bosqichma-bosqich mustahkamlash tamoyili o‘zlashtirilgan malaka va ko‘nikmalarni bolalarni amaliy faoliyatda doimiy takrorlashi va mashq qilishida amalga oshiriladi.

**Kompleks ta’sir tamoyili**. Optik va motor yozuv buzilishlariga ega o‘quvchilarda aniqlangan nutqiy va nonutqiy simtomlar kompleksiga korreksion ishlarni yo‘naltirishida amalga oshiriladi.

Korreksion ish yo‘nalishi, mazmuni va usullari o‘z ichiga yozuv funksiyasini rivojlantirishga mo‘ljallangan mashqlar kompleksini qamrab olgan. Topshiriqlar to‘plamini tuzishda maxsus adabiyotlarda (3,20,29,76,89,111,154) mavjud usullardan foydalanildi.

Korreksion ishlarning birinchi yo‘nalishi yozuv jarayonida ishtirok etuvchi ko‘ruv funksiyalarini shakllantirish: ko‘ruv diqqati, ko‘ruv gnozisi, ko‘ruv fazoviy idrok, optik materialdagi tafakkur operatsiyalari.

### Ko‘ruv diqqatini rivojlantirish

Ish ko‘ruv diqqatining xususiyatlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan, uni shakllanganlik darajasi grafik axborotlarni o‘zlashtirish sifatiga bog‘liq. Topshiriqlarni bajarish jarayonida ko‘ruv diqqatining to‘planishi, turg‘unligi,

bo‘linishi, taqsimlanishi va ko‘lami shakllantiriladi. Ixtiyoriy diqqat, nazorat funksiyalari grafik faoliyatning ajralmas komponentlari sifatida rivojlantiriladi.

Ko‘ruv diqqatini takomillashtirish uchun rasmda yashiringan tasvirlarni topish bilan bog‘liq topshiriqlar qo‘llaniladi. Bunday rasmlar bilan ishlashda bolalar yashirilgan predmetlarni topish va uni fondan ajratish, taxminiy, optik analiz o‘tkazish uchun kuzatuvchanliklarini ko‘rsatishi zarur. Shunga o‘xshash o‘yinlar turg‘unlik va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, optik buzilishlarni korreksiyalaydi. Diqqatni ozroq to‘planishiga o‘yin-musobaqalarda erishiladi. Masalan, o‘quvchilar oldiga 1-2 minut davomida ma’lum grafik obyektlarni ko‘rib olish maqsadi qo‘yiladi, keyin esa ular yashiriladi va to‘liq tavsiflab berish taklif etiladi.

O‘quv faoliyatida ko‘ruv diqqati o‘quvchilarning aqliy ishlari asosi sifatida yuzaga chiqadi. Bu ularni boshqa funksiyalar bilan bog‘liqligi va aloqasini ko‘rish imkonini ta’minlaydi (ko‘ruv idroki, tafakkur va boshqalar bilan)

Ko‘ruv diqqatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ba’zi usullarni keltiramiz.

Rasmda “yashirilgan” tasvirlarni topish, namunaga ko‘ra qator belgi va obyektlar qismlarini aniqlash; tasvirda yetishmayotgan qismlarni chizish; rasmni haqiqatga mos emasligini aniqlash, qator bir xil tasvirni chiziq bilan birlashtirish yoki bo‘yash; bir-biriga mos keluvchi tasvirni tanlash (qalqon, chana va boshqalar); qatordan berilgan shakllar (harflar, sonlar, bo‘g‘in. So‘z) yoki ularning birikmasini topish; grafik obyektlarni tasvirlash bosqichlarini belgilash va hokozo.

- Rasmga taklif etilgan qatordan yetishmayotgan tasvirni qo‘shish, namunaga ko‘ra yetishmayotgan harf yoki sonni yozish va boshqalar.
- Bir yoki har bir rasmda takrorlanadigan predmetlar tasvirini yo‘qotish.

## Ko‘ruv idroki va bilishlar (ko‘ruv gnezisi)ni rivojlantirish

Ish grafik belgilarni optik tahlilini yozuv jarayonida harf belgisini egallash, harflarning ko‘ruv obrazlarini tez va aniq bilish, optik jihatdan o‘xshash obrazlarni farqlashni ta’minlovchi ko‘ruv-gnostik funksiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Grafik obyektlarni taqqoslay olmaslik, ulardagi farqlarni topa olmaslik, tasvir

detallarini tahlil qila olmaslik yozuv ko‘nikmalarini egallashda muvaffaqiyatga erishish imkonsizligini ko‘rsatadi. Bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tishda grafik obyektlar va ularning elementlari shakllari, hajmi, rangini idrok etish malakasini mustahkamlovchi mashqlardan foydalanildi. Ko‘rsatilgan belgilariga ko‘ra obyektlarni guruhlarga ajratish, butundan qismni ajratish, qismlardan butunni tashkil qilish malakalar ustida ishlandi. Bolalar uchun haqiqiy tasvirlar bilan ishlash ancha oson hisoblandi, shuning uchun biz ko‘ruv idrokini rivojlantirish bo‘yicha ishni sxematik tasvirlarga o‘tish ketma-ketligidan boshladik. Bolalar grafik obyektlarni maqsadli tahlil qilish va tekshirishga ham o‘rgatildi: predmet qismlari nomi va ko‘rib chiqish, ularning kattaligi va o‘rnini aniqlash, barmoq bilan tasvirlash chegaralarini paypaslab chiqish (tekshiruvchi ko‘z va qo‘l harakatlari mashq qildirildi). Mavzularni mavhumlashtirish mashqlari ifodalashda va tasvirlashda bir nechta bir xil shakldagi, rangi bilan farq qiladigan shakllardan foydalanildi. Bunda yana bitta predmetni turli holatdagi tasvirlaridan ham foydalanildi.

Biz o‘quvchilarni shakllarni mustaqil ajratish va og‘zaki tavsif yordamida ular haqidagi tasavvurlarni mustahkamlanishiga erishdik: bolalar predmet shakllarini nafaqat bilish, tahlil qilish, qiyoslashga, balki ularni so‘z bilan tavsiflashga ham o‘rganishdi.

Demak ko‘ruv-gnostik funksiyalarni rivojlantirish bo‘yicha ishlar o‘z ichiga predmetlarni tanish, farqlash hajmi, shakli va rangiga ko‘ra nomlashni ham qamrab oladi. Bir nechta misollar keltiramiz:

1) Predmetlarni hajmiga ko‘ra nomlash, tanish va farqlash.

*Tasvir asta-sekin kattalashib (yoki kichiklashib) boradigan tartibdagi kartochkalarni qo‘yish, kartonli shakllarni ularning hajmiga ko‘ra guruhlarga ajratish va boshqalar.

* Tasvirni berilgan hajmiga mos ravishda (katta, kichik, o‘rtacha)sini bo‘yash yoki chegarasini ko‘rsatish. (tuxumdan ma’lum bir hajmda chiqadigan jo‘jani topish) va hokozo.

2) Predmetlarni shakliga ko‘ra nomlash, tanish va farqlash.

*Rasmlarni tasvirdagi shaklning o‘zgarib borishiga bog‘liq ravishda qo‘yib chiqish, tasvirlarni shakliga ko‘ra guruhlarga ajratish, aytilgan geometrik shaklga mos namunadagi shaklni topish va boshqalar.

- Simmetrik konturli tasvirni to‘ldirish, aytilgan shakldan foydalanib predmetrasmini chizish namuna asosida oxiriga yetkazilmagan rasmni chizib tugatish, qatorda yetishmayotgan shaklni tasvirlash, mavjud detallardan foydalanib tasvirni zarur element bilan to‘ldirish va hokozo.
- Shakl va tasvirni qator o‘xshash rasmlarda bo‘yash (variant qatordagi bir xil tasvirrlarni bo‘yash) qator tasvirlar ichidan predmetning bitta qismini zarur rang bilan bo‘yash.
- Shakllar qatoridan aytilgan shaklni o‘chirish
- Tasvirni tashkil etgan geometrik shakllar sonini aniqlash.
- Qatordan aytilgan shaklni topish (“Oshpazga pechenye uchun zarur shaklni topishga yordam ber”) predmetni uning elementlari shakliga tayanib topish (Mushukcha qaysi uyda yashaydi?”), geometrik asosiga ko‘ra tasvirlarni guruhlarga ajratish, qator belgilardan rasmga yetishmayotgan elementini topish va hokozo.
- Predmetlarni ularning soyasiga ko‘ra topish, tasvirlarni haqiqiy predmetlarga o‘xshash jihatlariga ko‘ra topish. (“Aravachalar nimaga o‘xshaydi?”) va boshqalar.
- Shakllarning hajmi va shtrixlar yo‘nalishini saqlagan holda chizish (mustaqil yokt tayyor geometrik asosida)), naqshlarni birlashtirish (rasmda kapalak qanotlarini namuna asosida birlashtirish).

3) Predmetlarni rangiga ko‘ra nomlash, tanish va farqlash.

- Qatorga qo‘shilgan yoki yo‘qolgan rang nomini aytish, aytilgan rangni boshqalari ichidan topish, predmetlarni rangiga ko‘ra guruhlarga ajratish, rasmga mos ranglarni tanlash va hokozo.
- Rasmlarni ularning rangiga ko‘ra zarur ketma-ketlikda qo‘yish, (bir rangdan ikkinchisiga, och, to‘qroq, to‘q rang); turli xil kartochkalarni aytilgan tartibda qo‘yish (“Naqshni davom ettir”)
- Tasvir yoki uning elementlarini ma’lum rangda bo‘yash.

- Qatordan aytilgan ranglarni o‘chirish (variant-ma’lum rangdagi shakllar va bo‘yoqlarni o‘chirish).

**Ko‘ruv fazoviy idrokni rivojlantirish**

Ish harflarning ko‘ruv obrazini fazoviy tavsifini qayta ishlash, ularning tipologik xususiyatlarini belgilash, harflarning ko‘ruv-fazoviy obrazini faollashtirish, harf elementlarida mo‘ljal olish, xususan harflarni yozuv qatoridagi o‘rnini aniqlash, daftar varog‘ida mo‘ljal olishni ta’minlovchi ko‘ruv-fazoviy funksiyalarni ta’minlashtirishga yo‘naltirilgan.

Obyektlarning fazoviy munosabatini baholash qobiliyatini rivojlantirish I.P.Pavlov tomonidan qayd etilgan 2 ta asosiy bosqichga ega: fazoviy munosabatlarni farqlash ancha keskin kontrast farqlarni baholashdan boshlanadi; farqlash bo‘sag‘asining pasayishi bir-biriga yaqin qo‘zg‘atuvchilarni qarama-qarshi qo‘yish orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarda grafik obyektlarni fazoviy munosabatlarini farqlash quyidagi ketma-ketlikda aks etadi: bolalar avval keskin fazoviy farqlarni aks ettirish va ajratishni o‘rgandi (yuqoriga-pastga, yaqin-uzoq), keyin ancha nozik farqlar qiyoslandi (ozroq yaqin yana yuqoriroq)

Mashg‘ulot jarayonida idroklangan grafik obyektlarni fazoviy munosabatlari, hajmi, og‘irligi, yo‘nalishi, joylashuvi haqidagi belgilarni kengaytirishga katta e’tibor qaratildi, O‘qitish jarayonida bolalar faoliyatini zarur va muhim turlari bo‘lib, kuzatish maqsadga qaratilgan fazoviy qarash sifatida xizmat qildi. Kuzatish murakkab faoliyat hisoblanib, kuzatilayotgan hodisalarni ular nomi bilan bog‘lab, idrok va tafakkurning o‘zaro aloqasini taminlaydi. Kuzatish ichida grafik obyektlarning fazoviy kattaliklarini ko‘z chamada baholash sifatida shakllanuvchi o‘lchov olish faoliyati muhim ahamiyatga ega Bolalarni grafik obyektlarni fazoviy munosabatlarini aks ettirish, tahlili qilish va idrok etishda o‘rgatishda ularning og‘zaki aytilishiga alohida e’tibor qaratildi. Bu ishlarning samarador shakli tasviriy diktantlar hisoblanadi.

Qog‘oz yuzasida mo‘ljal olish va tasvirlanayotgan obyektlar va ularning detallari o‘rtasidagi fazoviy munosabatlarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish yozuvning muvaffaqiyatli egallashning zarur sharti hisoblanadi. Fazoda mo‘ljal

olish ko‘nikmalarining o‘zlashtirishni o‘quvchilarda yozuv jarayonida paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam berdi (qatorni ajratish, harf va sonlarni ma’lum ketma-ketlikda yozish, so‘zlarni qatorga joylashtirish, matn elementlarini qog‘ozga joylashtirish va hokozo).

Ko‘pgina o‘yin usullari bolalar tomonidan predmetlarning uzoqligi, joylashgan o‘rni kabi fazoviy munosabatlarning (tegishliligi) xosligi va o‘zgaruvchanligini tushunishni mustahkamlashga yo‘naltirilgan edi. Bolalarda to‘la fazoviy yo‘nalishlarda mo‘ljal olish ko‘nikmasi mustahkamlandi.

O‘quvchilarda ko‘ruv fazoviy idrokni rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullardan ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

- Ko‘rsatma asosida predmetlarni qohoz varag‘i yuzasida tasvirlash yoki joylashtirish; namunaga ko‘ra fazoda turli holatda turgan tasvirlarga yetishmayotgan qismlarni qo‘shish, rasmni yetishmayotgan yarmini chizish (o‘ng yoki chap) shakllarni “oynada” yoki “daryoda”gi aksi; turli darajadagi murakkablikdagi geometrik naqshlarni o‘z tasviriga ko‘ra yasashi yoki davom ettirishi, katakchalarda yoki toza qog‘ozda.
- Rasmdagi rassom yo‘l qo‘ygan fazoviy xatoliklarni tushuntirish va topish; o‘xshash fazoda o‘chirilgan shakllar ichidan aytilgan shaklni topish; aytilgan yo‘nalishda o‘girilgan tasvirni ajratish rasmdagi o‘ng va chap qo‘lqopni ulardagi naqshlarni hisobga olgan holda topish; berilgan namunadagi shakllar va harflar birikmasini topish.
- Ketma-ket joylashgan tasvirlar ichidan berilgan tasvirni bo‘yash: predmetlarning fazoviy joylashuvi ko‘rsatmaga mos kelgan rasmlarni bo‘yash va boshqalar. Ma’lum tamoyillarga ko‘ra shakllarni o‘zaro joylashtirish qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagi usullar ko‘zda tutildi:
- Oval (aylanma) chizish va uni aytilgan qismlariga nuqta qo‘yish-o‘rtasiga, yuqoriga, pastga, o‘ngga, chapga:
- Kvadrat chizish va ko‘rsatma asosida yuqori va pastga 2 ta aylanma chizish, bittadan o‘ngga va chapga qo‘yib, ularni kvadratga nisbatan simmetrik joylashtirish.

Bu mashqlar shakllarni fazoda joylashuvini idrok etish qobiliyatini rivojlantirishga , fazoiy joylashuvni anglatuvchi tushunchalarni mustahkamlashga yo‘naltirilgan.

- Harflar shakllarni farqlash va idrok etish, harflar ko‘rinishini qolishni mashq qildirish uchun quyidagi usullar qo‘llanildi:
- Hajmiga ko‘ra farq qiladigan bir-birini ustiga qo‘yilgan turli geometrik shakllar ichidagi o‘quvchilarga bir xil rangdagi aylanalar, kvadratlar, uchburchaklar va hokozolarni topish taklif etiladi.

Grafik jihatdan o‘xshash harflarni grafik obrazini shakllantirish bo‘yicha ishga kirishishdan oldin, bolalarda fazoga mo‘ljal olishni shakllantiruvchi tayyorlov bosqichi o‘tkazildi.

“Elektron pashsha” o‘yini muvaffaqiyatli qo‘llanildi: bolalarga
markazida nuqta joylashgan kvadrat katakli qog‘oz berildi, signal asosida o‘yin maydoni bitta katakka o‘zgartirildi (yuqoriga, o‘ngga va hokozo. Bolalar fishkalarni qog‘oz yuzasida “pashshani joylashgan nuqtasiga asosan joylashtiradi. O‘yin asta-sekin tezlashadi va joylashtirilgan fishkalar soni 2-3 tadan 8-10 tagacha orttirildi. O‘yin kvadratni bildiruvchi turli fazoviy tushunchalarni o‘zlashtirishiga yordam beradi (o‘rtasi, o‘ng tomondan yuqori, chapdan pastki va hokozo).

Keyin o‘quvchilarga turli naqshlar va harflar chizish uchun diktantlar taklif etildi. Demak katak qog‘ozda nuqta qo‘yildi va undan diktant asosida chiziqlar o‘tkazildi: beshta katak pastga, bitta o‘ngga, 4 ta yuqoriga – 2 ta o‘ngga, bitta yuqoriga 3 ta chapga) Topshiriqni to‘g‘ri bajarishida “G” harfining tasviri hosil qilinadi, keyin shtrixlanadi. Shu tariqa o‘quvchilar diktant asosida har qanday harfni yozishdi. Bu xil diqqatni to‘plashni ko‘rsatmalarni aniq bajarishni talab etadi, ko‘ruv-fazoviy idrokni shakllantiradi. Harflarning ko‘ruv obrazlarini shakllantirishda o‘quvchilarda harf elementlari soni va munosabatiga diqqatni to‘plash usullaridan foydalanildi. Misollar keltiramiz: Diqqatni, harf yo‘nalishi, elementlarning joylashuvi va soniga, yo‘naltirib to‘plab detallardan (tayoqchalar, ovallar, yarim ovallardan) harf yasash; aralash, sharikda harfni tanish, harflarning to‘hri joylashuvini aniqlash, ma’lum elementlarni surish yo‘li bilan harf yasash; qatordan to‘g‘ri yozilgan harfni topish; harflarni oynavand yoki to‘liq yozilmagan

so‘zlarni to‘g‘ri yozish va ajratish, bosma harflar ustida ishlash, harflarning grafik obrazini mustahkamlash va ularning grafik elementlari munosabatlarini tushunish uchun loto samarali hisoblandi, unda har bir kvadrat gorizontal bo‘yicha kesilgan harflar qismini aks ettiradi. Variant: harflarning mayda qismlarini aks ettiruvchi ko‘plab kvadratlar qo‘llanildi. Harflar obrazini eslab qolish uchun arqoncha bilan o‘ynashdan foydalanildi: bolalarga arqonchani shunday o‘tkazish taklif etildiki, natijada harf hosil bo‘lsin.

**Optik materiallarda tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish**

Ish yozuv belgilarini taxminiy idrokini ta’minlash va harflarning mavjud optik xususiyatlarini aniqlashga imkon beruvchi intelektual operatsiyalarning takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Korreksion ishlar jarayonida o‘quvchilar taqqoslashni yaxshi amalga oshira boshlashdi, grafik obyektlardagi o‘xshas’halik va farqlarni, butun va uning qismlari o‘rtasidagi aloqani oson o‘rnatishdi.

Tasviriy vositalarni korreksion ishga qo‘llanilishi bolalarda optik materialdagi tafakkur operatsiyalarni rivojlantirdi.

Sensor etalonlar bilan operatsiyalar va bajarish va so‘zli tushunchalarni geometrik shakllar hajmi, nomlari, fazodagi o‘rnini nomlanishi) mustahkamlash maqsadida “Rassom nima ko‘rganlarini top!” o‘yini qo‘llanildi. Logoped rasmni quyidagicha tavsifladi: “Rasmni uncha katta bo‘lmagan kvadrat chizdi. Uning ichida kichikroq, ikkita kesishma chiziqlar bilan 4 ta qismga bo‘lingan kvadrat chizdi. Katta kvadrat ustidan uchi yuqoriga qaragan uchburchak chizilgan. Bu nima?” Fikran o‘zgargan va ko‘ruv obrazlarini aks ettirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun kesma rasmlarni birlashtirish kabi kesma rasmlarni birlashtirish kabi boshqa mashqlar qo‘llanildi.

Bir nechta ish usullarini keltiramiz: soyaviy timsollar ichidan tasvirlar juftini topish va ortiqcha tasvirni topish, qatordagi yetishmayotgan tasvirni tiklash, tasvir yoki shaklni jadvalga mos kataklarga joylashtirish. Biz ko‘p elementli murakkab shakllarni tahlili, o‘ylangan qurilmalarni yasash va ular bilan operatsiyalar o‘tkazishni rivojlantirish uchun biz butun shakldan qismlarni ajratish bo‘yicha ish

o‘tkazdik. Grafik materialni analiz, sintez qilish umumlashtirish operatsiyalari yozuv ko‘nikmalarini egallash uchun zarur shartlarni yaratdi.

Korreksion ishlarning ikkinchi yo‘nalishlari yozuvning motor funksiyalarini shakllantirishdir. Topshiriq. Qo‘lni aniq murakkab koordinatsiyalashgan yozuv harakatlarini bajaruvchi grafik faoliyatning bevosita quroli sifatida tayyorgarligini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Praksisni takomillashtirish bo‘yicha ish o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

1) Harakatlarni kinestetik asosini rivojlantirish
2) Harakatni dinamik tashkil etishni rivojlantirish

Statik va dinamik praksisni rivojlantirish bo‘yicha turli
xil mashqlar maxsus adabiyotlarda keltirilgan (112,166,192) va to‘liq yoritilishiga muxtoj emas. Biz o‘z ishimizda yuqorida keltirilgan adabiyotlardagi bir necha usullardan foydalandik. Harakatlarning kinestetik asosini rivojlantirish uchun harakatlarstatikasini amalga oshiruvchi mashqlar qo‘llanildi. O‘quvchilarga taqlid asosida qo‘l barmoqlari bilan ma’lum holatni ko‘rsatish taklif etildi. Ishning ilk bosqichida o‘yin shakli va predmetning o‘xshash obrazini idrok etish qo‘llanildi. Qo‘llanilgan mashqlar: “Uycha”, “Savatcha”, “Stul”, “Ko‘prik”, “Oqqush”, “Quyoncha”, “Xo‘roz”, “Mushuk” va hokozo.

Harakatlarni dinamik tashkil etishni rivojlantirish. Dinamik praksisni shakllantirish turli xil predmet – amaliy faoliyatdan, shuningdek, barmoqlar gimnastikasidan foydalanildi.

Predmet – amaliy faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha ish o‘z ichiga quyidagilarni - ish usullarini qamrab oladi.

- to‘qish, shunurlarni, bog‘ichlarni boylash va yechish, iplarni o‘rish va o‘rash va boshqalar.
- Qurish, yasash.
- Sochilgan o‘yinchoqlarni va kesma rasmlarni yig‘ish
- Turli xil naqshlar, geometrik shakllar va predmetli tasvirlarni cho‘p yoki gugurt cho‘pi, munchoq yoki urug‘lardan yasash.

- Gorox yoki urug‘lar bilan shakllar yoki predmetli tasvirni butun yuzasini qoplab chiqish
- Mozaika bilan ishlash
- Rangli rasmlar bilan o‘yin ( predmetlarni chegara chiziqlari asosida qirqish, aplikatsiya, kesilgan detallarni namunaga yopishtirish
- Kesilgan qog‘oz bo‘laklaridan gilamcha to‘qish, turli shakllar hosil qilish
- Tasmaga turli xil shakldagi rangdagi va kattalikdagi munchoqlarni va halqalarni o‘tkazib bezak hosil qilish
- Arqonchadan turli xil shakl, harf, sonlarni hosil qilish

Barmoqlar mashqi she’rlar bilan birga amalga oshirildi.

Misollar keltiramiz: “Barmoq uyg‘ondi”, “Barmoqlar salomlashdi”, “Qo‘ng‘iz”, “Shiliqqurt”, “Gul”, “Qulf”, “Mehmonda” va hokozo.

Korreksion ishlarning uchinchi yo‘nalishi ko‘ruv-motor koordinatsiyalarini shakllantirishdir. Topshiriq. Aniq maqsadli qo‘l harakatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, qog‘oz yuzasida grafik chiziqlarni muvaffaqiyatimizni ta’minlovchi ixtiyoriyo chiziq o‘tkazadi.

Grafik faoliyat jarayoni qalam ushlaydigan va va chiziqlar o‘tkazadigan barmoqlar, qo‘llarning muskul bo‘g‘im ishlari, kinesetetik sezgilari bilan bog‘liq maxsus mashqlar davomida harakatlarning aniqligi va dadilligi -, ko‘ruv-harakat sezgilarining koordinatsiyalashda rivojlantirildi. Grafik faoliyatda grafik butunlik haqidag aniq tasavvur muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘ziga qo‘l va barmoqlar harakatini bo‘yundiradi. Ko‘ruv va harakat nazoratining birligi tasviriy faoliyat va yozuvni muvaffaqiyatidagi zarur shart hisoblanadi. Rasm chizishda va yozuvdagi qator bir xil xususiyatning bolada tasviriy faoliyat va yozuv ko‘nikmasining rivojlanishida o‘ziga xos asas paydo qiladi.

Tasviriy vositalardan foydalanib mashqlar o‘tish jarayonida mayda qo‘l materikasining takomillashmaganligi alohida harakatlarni bajarishda va bir harakatdan boshqasiga o‘tishdagi qiinchiliklar asta-sekin bartaraf etib borildi. Grafik o‘yinli mashqlar qo‘llarni ongli va aniq harakatlar bajarishga o‘rgatdi, ularga egiluvchanlik va qat’iylik bag‘ishladi. Ko‘ruv ongli kinestetik sezgilar, harakatlar

o‘nalishi va sifatini nazorat qilish imkonini berdi. Natijada grafo-motor ko‘nikmalarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratildi. Chiziqlar chizish texnikasini egallash jarayonida nozik ko‘ruv motor koordinatsiyasini ta’minlovchi ko‘ruv kinestetik aloqalar ustida ishlandi. Ko‘ruv-motor koordinatsiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ba’zi usullarni keltiramiz.

- O‘yinli grafik topshiriqlar: to‘g‘ri vertikal (baland ustunlar, to‘siqlar) , gorizontal chiziqlar, yomg‘ir, shar bog‘langan ip, tog‘lar, egik chiziqlar, daryo irmoqlari, to‘lqinlar favvora va boshqalar), yopiq egik chiziqlar (sharlar, teshik kulchalar, halqalar, turli g‘ildiraklar, turli kattalikdagi koptoklar, tarvuz, apelsin, olma va boshqalar).
- Tayanch nuqtalar asosida rasmlarni chizish, katakchalar asosida rasm chizish, shtrixlar yo‘nalishi va hajmini saqlagan holda bezaklarni davom ettirish (“Gilamchadagi bezakni davom ettir”) murakkab chiziqlarni chizish.
- Tasvirni (shuningdek harf a sonlarni) yetishmayotgan elementlar bilan to‘ldirish, simmetrik tasvirni tishmayotgan yarmini chizish, geometrik naqshlarni oxiriga yetkazish naqshni katakcha yoki ketma-ket tasvirlarda hosil qilish; nuqtalar asosida qalam uchini qog‘ozdan uzmasdan rasm chizish va hokozo.
- Rasmlarni bo‘yash, geometrik shakllar va predmetli tasvirlarni aytilgan yo‘nalishda shtrixlash, grafik diktant va hokozo.

Grafo-motor ko‘nikmalarni shakllantirishning muhim sharti harflar yozuvidagi sterotip harakatlarni egallash, yozuvni avtomatlashgan kinetiko – kinestetik nazoratini paydo bo‘lishi hisoblanadi. Kinetik jihatdan o‘xshash va oynavand yozuvli harflarni farqlash bo‘yicha maxsus ishlarda biz aralash harflardan harfni ajratish usuliga katta e’tibor berdik: bu harflarni predmetli rasmda tizimli tasvirlanishini topish, uning to‘g‘ri yozilishini ko‘p marta takrorlash, harflarni yozishda trafaretdan foydalanish, sxema bo‘yicha va mustaqil yozishni egallash bunday harflar obrazi ustida ishlashda bu harflarning yozilishidagi ulardagi ko‘ruv elementlari soni va harakat elementlari soni aniqlandi. Bolalarning diqqati doimo aralashtiriladigan harflarning ikkinchi elementini yozilishini farqlashga qaratildi.

Korreksion ishda husnixat mashqidan ham foydalanildi. Bolalarga namuna asosida naqshning alohida elementlarini bo‘yash yoki shtrixlash; naqshning elementlarini birlashtirish yo‘li bilan tugatish; o‘ylangan detallar asosida mustaqil naqshlar chizish taklif etildi. Mashqlarning vazifasi harflarning aniq fazoviy obrazlari va chiziqda to‘g‘ri joylashuvini shakllantirishi, yozuv jarayonida buyurilgan chiziqlar yo‘nalishini saqlay olish hisoblanadi. Bunday mashqlarning o‘ziga xosligi berilgan bitta rasm naqsh asosida belgilangan vazifalarni bajarish ketma-ketligi hisoblanadi. Vazifalarni bajarish texnologiyasi o‘z ichiga obrazni idroklash, berilgan chiziqlar bo‘yicha naqsh elementlarini takrorlash, naqshning yetishmayotgan elementlarini mustaqil chizishni qamrab oladi. Naqsh-xoshiyalarni chizishdagi tasviriy vositalarning qiziqarliligiga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari, ularni o‘yinga nisbatan ehtiyoji javob beradi. Xoshiyalar yozuv ko‘nikmasini shakllantirish qonuniyatlariga mos harakatlari asosiga qurilgan bo‘lib, ular o‘zida ko‘pgina yozma harflarni asosiy harakat elementlarini takrorlanishini aks ettiradi. Masalan: “Baliqlar”, “Qushlar”, “Kaktuslar” yarim oval ilmoqchalarni yuqoriga yoki pastga oddiy detallar bilan chizishni takrorlash asosiga qurilgan bolalar “Baliqlar” xoshiyasini chizishdan avval yarim avval ilmoqchalarni chizishni mashq qildilar, keyin ilmoqchada yarim oval chiziqcha chizib baliqning boshini ajratishdi, ko‘z o‘rniga nuqta qo‘yishdi. Dumini chizib yarim oval shtrixlar bilan butun tanasining tangachalari kabi shtrixlab chiqishdi. “Qushlar” xoshiyasida o‘quvchilar ilgak tagidan doiracha – boshini chizib, ko‘z o‘rniga nuqta qo‘yishdi, qisqa chiziqlar bilan --- tumshug‘ini aks ettirishdi, ilmoqcha ichiga yarim oval bilan qanotini aks ettirishdi, mana shu asosda o‘quvchilar ilmoqchani qisqa shtrixlar bilan to‘ldirib kaktuslarni, boshqa o‘simliklar va hayvonlar shakllarini chizishdi. Xoshiyaning boshqa turlari (“qo‘ng‘iz”, “malina” va boshqalar) ovalni chizish va bog‘lashni qayta ishlash ko‘nikmalarini hosil qilishda qo‘llanildi. Xoshiyalar rasmini chizish jarayonida bolalar elementar shtrixlash asosida ovalning alohida qismlarini to‘g‘ri va yarim oval chiziqlar bilan shtrixlash bo‘yicha qo‘shimcha operatsiyalar bajardi, oddiy detallar chizishdi. Biz ravon qo‘l harakatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan mashqlardan biri o‘quvchilarda qo‘l uzmasdan

ovallar (ikki yoki uchta) chizishiga e’tibor qaratdik. Gorizontal joylashgan yarim ovallarni chizish mashqida bolalar “Tipratikon” xoshiyasini chizishdi. “Olxo‘rilar” xoshiyasi yuqori va pastki qismlarni biriktiruvchi yarim oval chiziqlar asosida yaratiladi. “Bayroqchalar”, “Smorodinalar” xoshiyalarida to‘g‘ri chiziqlar asos qilib olingan. Aylana chiziqlarni yuqori va pastga chizish texnikasini shakllantirishda “G‘ozlar” xoshiyasidan foydalanildi. “Gullar” xoshiyasini chizishda chiziqlari pastga qaragan va yuqorida aylanalar bilan tugaydigan qo‘shimcha elementli ilmoqchalarni chizish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llanildi. Xoshiyalarni tashkil qiluvchi harakat elementlari avvalida belgilangan chiziqlar asosida amalga oshirildi, bu o‘quvchilarda berilgan harakatlarni ular yaxshi ko‘radigan faoliyat turlaridan biri – rasm chizishda qayta ishlash imkoniyatini beradi. Ish boshlash avvalidagi bolalar bilan suhbatda ular naqshni aks ettirganligi, keyin belgilangan chiziqlarni o‘tkazganligi, aytilgan harakatlarni mashq qilib yetishmaydigan elementlarni chizganligi va hosil bo‘lgan rasmni shtrixlaganliklari aniqlandi. Xoshiyalar chizish jarayonida rangli ruchkalardan foydalanishga ruxsat berildi Xoshiya chiziq bezaklarini chizishi yozuv uchun ma’lum harakat turlarini gina shakllantirib qolmasdan, balki kichik maktab o‘quvchilarida bolalarning bilish faoliyatlarini ijobiy shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi fazoviy tasavvur , kuzatuvchilikni rivojlantiradi.

Yozuv ko‘nikmasini rivojlantirishning zarur shartlaridan biri o‘quvchilarni turli shakllar bilan proporsiyasi, hajmi va shaklini to‘g‘ri idrok etish hisoblanadi. Shakllarni ko‘chirib chizish, detallardan modellashtirish, ko‘ruv idroki va ko‘ruv motor koordinatsiyalarini chiniqishini ta’minlaydi. Masalan: o‘quvchilar oltita kvadratdan iborat, ularning uchtasida turli murakkablikdagi shakllar qurilmasi tasvirlangan qog‘ozlar taklif etilib qolgan koordinatlarga xuddi shunday tasvirlan chizish taklif etildi. Namunalar turli-tuman bo‘lib, har bir topshiriqni bajarishda uning murakkablik darajasi ortib bordi. Bolalar ishini baholashda biz e’tiborni topshiriqni bajarishdagi turli-tuman xatoliklarga qaratdik. Xajmning nomutanosibligi, shakl elementlari va shtrixlarning noto‘g‘ri munosabati, kvadratda tasvirlarning noto‘g‘ri joylashuvi, chiziqlarning noaniqligi va boshqalar.

Topshiriqni murakkablashtirish maqsadida bolalarga “o‘ng” va “chap” tomondagi shakllarga o‘xshash rasmlar chizish taklif etildi. Bunday mashqlar grafik elementlarning tavsifini farqlay olmaydigan va “oynavand” yozuvchi , ayniqsa chapaqay o‘quvchilarga foydali hisoblanadi. Shakllarni ko‘chirib chizishda biz harf elementlaridan ham foydalandik. Topshiriqlarni murakkablashtirish maqsadida ta’sirni eslab qolish va uni xotira asosida chizish taklif etildi. Qo‘lni zarur yo‘nalishda harakatlantirish qobiliyati avval yirik harakatni amalga oshirilishida mashq qildirildi, shu maqsadda quyidagi mashqlardan foydalanildi:

- qog‘ozda o‘quvchilarga 10-15 ta nuqta va yulduzchalar qo‘yish taklif etildi, keyin katta uzluksiz chiziq bilan barcha yulduzlarni, keyin barcha nuqtalarni turli rangdagi chiziqlardan foydalanib tutashtirish talab etildi.

Topshiriqni bajarish bilan bir vaqtda o‘z harakatlarini rejalashtirish qobiliyati mustahkamlandi. Shu maqsadda bolalarga spirallarni o‘ng va chap tomonga “aylantirish”, “to‘lqinlar chizish” va boshqa qiziqarli topshiriqlar berildi, ular mayda qo‘l matorikasi va ko‘ruv-motor koordinatsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Topshiriqda turli shakllar va ranglardan foydalanib, biz bolalarda rang va shakllarni farqlash, shakllarning joylashuvi ketma-ketligi va ularning sonini eslab qolishni mashq qildirdik.

## Uchinchi bob bo‘yicha xulosa

Tadqiqotning yakunlovchi qismida umumta’lim maktab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yo‘l qo‘yadigan maxsus xatoliklar ichida optik va motor yozuv buzilishlari keng tarqalganligi aniqlandi. Yozuv ko‘nikmasini to‘laqonli egallash asosida yotuvchi nonutqiy psixik funksiyalar tahlili holatni optik va motor yozuv buzilishiga ega bolalarning individual, psixologik xususiyatlari ko‘rsatdi. Bunda asosiy omil to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi korreksion pedagogik ta’sir usullari mazmuni va maxsus yo‘nalishlari ishlab chiqishda hisobga olinishidir.

Optik va motor yozuv buzilishiga ega o‘quvchilarning grafik faoliyati haqida olingan ma’lumotlardan aniqlanishicha, yozuv ko‘nikmasini shakllanishini ta’minlovchi oliy psixik funksiyalarning yetarlicha shakllanmaganligi bu toifa bolalarning tasviriy faoliyatida ham o‘z aksini topadi. Shuning uchun umumta’lim

maktab sharoitida optik va motor yozuv buzilishiga ega 3-sinf o‘quvchilari bilan an’anaviy logopedik mashg‘ulotlar bilan bir qatorda maxsus tasviriy vositalarni qo‘llaydigan korreksion ishlar olib borildi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalar qilindi:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ichida optik va motor yozuv buzilishlari boshqa tur xatoliklari ichida keng tarqalgan hisoblanadi va quyidagicha namoyon bo‘ladi: kinetik jihatdan o‘xshash harflarning almashtirilishi – harfning birinchi elementiga moslab xato yozish; optik jihatdan o‘xshash harflarni almashtirilishi, ularning bir xil yoki o‘xshash elementlari fazoda turlicha joylashtiriladi; harflarning oynavand yozuvi; harflarni grafik noaniq tasvirlash – ularning balandligini, hajmini va elementlarini fazoda joylashuvining buzilishi; grafik belgini tanlashdagi ikkilanishlar bilan bog‘liq. Harflarning grafik ko‘rinishini aks ettirish bilan bog‘liq xatoliklar; qo‘shni harfda xuddi shunday elementi bo‘lgan harfni oxirigacha yozmaslik.

2. Optik va motor yozuv buzilishiga ega boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida rasmlar sifatining pastligi kuzatiladi, ularning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi: tasvirlarning noaniqligi, soddaligi, tizimliligi; qog‘oz yuzasida mo‘ljal olishda obyektlar o‘rtasidagi va ularning elementlari o‘rtasidagi fazoviy munosabatlarning aks ettirilishidagi o‘ziga xos qiyinchiliklar: grafik faoliyatni bajarishdagi sifatning pastligi (shakl yasovchi chiziqlarning qiyshiqligi, noaniqligi, tasvirlar chegarasining aniq emasligi, shtrixlar o‘tkazilishining buzilganligi va hokozo.

3. Grafik faoliyatlar dastlabki sharti psixo-fiziologik xususiyatlarni yozuv yozishda paydo bo‘lish birligi aniqlanadi; ko‘ruv idrokining yuzaki taxminiy xarakteri, optik jihatdan o‘xshash grafik obyektlarni farqlashdagi noaniqlik; ko‘ruv-fazoviy idrokning buzilishi; optik analiz, sintez, qiyoslash, umumlashtirish va boshqa tafakkur operatsiyalarining yetarlicha rivojlanmaganligi, statik va dinamik praksisni yetarlicha rivojlanmaganligi, ko‘ruv-motor koordinatsiyalarining takomillashmaganligi.

## UMUMIY XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot logopediya nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb muammo – optik va motor yozuv buzilishiga ega bo‘lgan bolalar va ular bilan olib boriladigan korreksion ishlarni o‘rganishga bag‘ishlanadi. Yozuv va grafik faoliyat umumiyligini hisobga olib kichik maktab o‘quvchilarida optik va motor yozuv buzilishlarini bartaraf etish bo‘yicha korreksion ishlar yozuv ko‘nikmasini shakllantirishni ta’minlovchi nonutqiy psixik funksiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan vositalarni qo‘llanilishida ishning samaradorligi oshadi deb taxmin qildik.Adabyotlarni o‘rganish va taxlil etish,ta’kidlovchi eksprimnetni o‘tkazish

hamda olingan natijalarni mate6matik statistik taxlil etish natijasida quyidagi umumiy xulosalarni keltirish mumkin:

1. Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarida optik va motor yozuv buzilishlari xarakteri va tarqalganligi eksperiment jarayonida o'rganildi;

2. Optik va motor yozuv buzilishlariga ega kichik maktab o'quvchilarida grafik faoliyatning o'ziga xosligi tajriba-sinov asosida aniqlandi;

3. Optik va motor yozuv buzilishlariga ega kichik maktab o'quvchilarida yozuv hususiyatlarini grafik faoliyat turi sifatida tahlil qilindi;

4. Optik va motor yozuv buzilishlariga ega kichik maktab o'quvchilaridagi bunday kamchiliklarini bartaraf etish bo'yicha korreksion ishlar mazmuni va usullarini aniqlandi;

5. An'anaviy korreksion-pedagogik ishlar bilan bir qatorda optik va motor yozuv buzilishlarni korreksiyalashda tasviriy vositalarni qo'llagan holda maxsus ish yo'nalishi va mazmuni, usullarining qo'llanilishi; yozuvni egallashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish samaradorligini oshiradi, grafik faoliyatning psixo-fiziologik asosini takomillashtiradi.

Tadqiqot kelgusida optik va motor yozuv buzilishiga ega bo'lgan o'quvchilarni o'rganishda va bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish usullarini takomillashtirishda, optik va motor yozuv buzilishlarini bartaraf etishda individual dasturlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Davlat dasturlari va qonunlari

**1.** O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" Qonuni / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.

**2.** O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'irisida"gi Qonuni / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.

**3.** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi / O'n ikkinchi chaqiriq

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: O‘zbekiston. 1992.

## II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

**4.** Karimov I.A. “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi. Toshkent 2010 yil.

**5.** Karimov I.A. “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi. Toshkent.2014 yil.

**6.** Karimov I.A. Jaxon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009.

**7.** Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

## III. Asosiy adabiyotlar

**8.** Ayupova M.Y. “Korreksion ishlar metodikasi” ma’ruza matni. T.: 2001.

**9.** Ayupova M.Y. Logopediya. - T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007.

**10.** Агаркова Н.Г. Формирование графического навика письма у младщих школьников /МГПИ им. В.И. Ленина. -М.: МГПИ, 1987. - 129 с.

**11.** Агранович З.Е. Дидактический материал по развитию зрительного восприятия и узнования (зрительного гнозиса) у старших дошкольников и младщих школьников. - СПб.: Детство-Пресс, 2003. - 40 с

**12.** Ананев Б.Г. Психология чувственного познаний. - М.: Наука, 2001.

**13.** Ахутина Т.В., Золотарёва Э.В. О зрительно-пространственной дисграфии:нейропсихологический анализ и методи её коррекции // Школа здоровы. -1997.-№3.-0.41-43.

**14.** Ахутина Т.В. Нейропсихологический подход к диагностике трудностей обучения// Проблемы специальной психологии и психодиагностика отклоняюшегося развитии. - М.: Изд-во Мин. обшего и проф. образования РФ, 1998.-с. 85-92.

**15.** Ахутина Т.В. Нейропсихологический подход к диагностике и коррекции трудностей обучения письму // Современние подходи к

диагностике и коррекции речьевих расстройств. - СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2001. -с. 195-213.

**16.** Ахутина Т.В. Трудности письма и их нейролингвистическая диагностика // Письмо и чтение: трудности обучения и коррекции. Учебное пособие / Под общ. ред. О.Б.Иншаковой. - М.: Московский психолого-социалний институт, 2001.-с. 7-20.

**17.** Ахутина Т.В., Пилаева Н.М. Диагностика развития зрительно-вербальних функции: Учебное пособие. - М.: Нзд. сентр ≪Академия≫, 2003. - 64 с.

**18.** Безруких М.М., Ефимова СП. Упражнения для занятий с детми, имеющими трудности при обучении письму. - М.: Аурис: Айсберг, 1991. - 106с.

**19.** Безруких М.М. Обучение письму. - М.: Просвешение, 1997. - 110 с.

**20.** Безруких М.М., Ефимова СП. Ребёнок идёт в школу. - М.: Академия, 2000.-248 с.

**21.** Блонский П.П. Психология младщего школьника. - М.: Моск. психол.-сотс. ин-т, 1997.-574 с.

**22.** Берких М.М.  Обучение письму.- М.: Просвешение, 1997. - 110 с.

**23.** Беляев Т.Ф. Упражнения по развитию пространствештих представлений у учащихся. -М.: Просвешение, 1983. - 112 с.

**24.** Боровская И.К., Ковалетс И.В. Развиваем пространственные представления у детей с особенностями психофизического развитии. - М.: Владос, 2004. -35с.

**25.** Величенкова О.А. Анализ специфических ошибок письма младщих школьников // Письмо и чтение: трудности обучения и коррекция: Учебное пособие / Под общ. ред. О.Б.Иншаковой. - М.: Московский психолого-социалний институт, 2001. - с.45-51.

**26.** Волоскова П.П. Трудности формирования навика письма у учащихся начальних классов: Автореф. дис.... канд. пед. наук. -М., 1996. - 16 с.

**27.** Виготский Л.С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 1996. - 414 с.

**28.** Грошенков И.А. О Путях усиления коррекцыюшего воздействия по рисованию на развитие учащихся вспомогательньной школы // Эстетическое воспитание во вспомогательной школе. -М.: Просвешение, 1972. - с. 7-35.

**29.** Грошенков И.А. Занятия изобразительным искусством в специальной коррекционной школе. - М.: Ин-т обшегуманитар. исслед., 2001. - 223 с.

**30.** Грушевская М.С. Дисграфия у младщих школьников: Автореф. дне. ...Канд. пед. наук. -М., 1982. - 18 с.

**31.** Данилавичюте Э.Г. Прогнозирование и предупреждение трудностей в овладении навиками чтения у дошкольников с ИОИР: психолингвистический аспект // Изучение нарушений письма и чтения: Материалы и международной ассоциации дислексии. - М., 2004. - с. 82-89.

**32.** Деглин В.Л., Ивашина Г.Г., Николенько И.Н. Роль доминантного и недоминантного полушарий мозга в изображении пространства // Хрестоматия но нейропсихологии / Под ред. Е.Д.Хомской. - М.: РПО, 1999. - с. 174-180.

**33.** Елетская О.В., Горбачевская Н.Й. Развитие и коррекция пространственно-временных представлений у детей младшего и среднего школьного возраста. -М.: Школьная пресса, 2004. - 80 с.

**34.** Емелянова И.Д. Мелкая моторика рук как предпосилка овладения навиками письма дошкольниками с обшим недоразвитием речьи // Изучение нарушений письма и чтения: Материали и международной конференции Российской ассоциации дислексии. - М, 2004. - с. 94-98.

**35.** Ефименкова Л.Н. Коррекция устной и письменной речьи учащихся начальних классов. Пособие для логопеда. - М.: Владос, 2001. - 335 с.

**36.** Желтовская Л.Й., Соколова Е.П. Дидактический материал к урокам чистописания: Пособие для учащихся четирёх лет. нач. школы. - 2-е изд. - М.: Просвешение, 1989.-48 с.

**37.** Иншакова О.Б. Развитие и коррекция графо-моторных навиков у детей 5-7лет: В 2 ч. - Ч. 2. - М.: Владос, 2003. - 36 с.

**38.** Кириченко Н.А. Развитие пространственных представлений на уроках изобразительного искусства: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - М., 1970. -27с.

**39.** Корнев А.Н. Дислекция и дисграфия у детей. - СПб.: Гиппократ, 1995. -224 с.

**40.** Корнев А.Н. Нарушения чтения и письма у детей. - СПб.: Речь, 2003. -330 с.

**41.** Курганский А.В., Ахутина Т.В. Трудности в обучении и серийная организация движений у детей 6-7 лет // Вестник Моск. ун-та. Серия 14. ПсихологиЙ. - 1996. - №2. - с. 58-65.

**42.** Кярнер Э.Г. Обучение учащихся младщих классов всномогательной школы тематическому рисованию: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - М., 1988.-15 с.

**43.** Лалаева Р.И. Дисграфия // Хрестоматия по логопедии: В 2 тт. Т ИИ / Под ред. Л.С.Волковой и В.И.Селивёрстова. -М.: Владос, 1997. - с. 502-511.

**44.** Лалаева Р.И., Венедиктова Л.В. Нарушение чтения и письма у младщих школьников: Диагностика и коррексиЙ. - СПб.: «Союз», 2004. - 224 с.

**45.** Леонтев А.Н. Проблемы развития психики. - М.: Изд-во Моск. ун-та, 1981.-584 с.

**46.** Леушина Л.И. Зрительное пространственное восприятие. - Л.: Наука, 1978. -175 с.

**47.** Липакова В.И., Логинова Е.А., Лопатина Л.В. Дидактическое пособие для диагностики состояния зрительно-пространственних функции у детей дошкольного и младшего школьного возраста. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2001.-45 с.

**48.** Логинова Е.А. Особенности коррекции дисграфии у учащихся с ЗПР // Письмо и чтение: трудности обучения и коррекция: Учеб. пособие. - М.: МПСИ, 2001.-с. 210-219.

**49.** Логопедия: учебник для студентов дефектол. фак. нед. вузов / Под ред. Л.С.Волковой, С.П.Шаховской. - М.: Владос, 1998. - 680 с.

**50.** Лурия А.Р. Материали к генезису письма у ребёнка // Хрестоматия по возрастной и педагогической психологии. - М.: Изд-во Моск. ун-та, 1980. - с. 88-100.

**51.** . Лурия А.Р. Письмо и речь: Нейропсихологические исследований. - М.: Изд. сентр ≪Академия≫, 2002. - 352 с.

**52.** Лурия А.Р. Основи нейропсихологии. -М.: Асадемиа, 2004. - 381 с.

**53.** Мухина Б.С. Детская психология / Под ред. Л.А.Венгера. - М.: Просвешение, 1985.-272 с.

**54.** Нейропсихология детского возраста / Под ред. А.В.Семенович. - М.: Псих.-мед.-сотс. центр помощи детям и подросткам, 1998. - 46 с.

**55.** Немсова Н.Л. Зеркальные ошибки письма. - Автореф. дис. ... канд. пед. наук.-М., 1999.-16 с.

**56.** Павлова Т.А. Развитие пространственного ориентирования у дошкольников и младщих школьников. - М.: Школная пресса, 2004. - 62 с.

**57.** Полонская Н.Н. Применение нейропсихологического метода исследования в диагностике детей с нарушениями речьи // Школа здоровЙ. - 1999. -№2.-с. 72-79.

**58.** Практикум но возрастной и недагогической нсихологии / Отв. ред. Дубровина И.В. - М.: Асадемиа, 2000. - 160 с.

**59.** Пилаева Н.М. Трудности зрительно-предметного восприятия: диагностика и коррекция // Школа здоровЙ. - 1996. - №4. - с. 42.

**60.** Ратанова Т.А., Шляхта Н.Ф. Психодиагностические методы изучения личности. - М.: Флинта, 2000. - 263 с.

**61.** Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии: В 2 т. - М.: Педагогика, 1999.-720 с.

**62.** Савашли Л.П. Пальчиковая гимнастика. - М.: АСТ-Астрел,2001- 46 с.

**63.** Садовникова И.П. Нарущения письменной речьи и их преодоление у младщих школьников. - М.: Владос, 1997. - 255 с.

**64.** Семенович А.В. Введение в нейропсихологию детского возраста: Учебное пособие. - М.: Генезис, 2005. - 319 с.

**65.** Снирова Л.Ф., Ястребова А.В. Дифференцированный подход к проявлениям нарушения письма и чтения у учащихся обшеобразовательних школ // ДефектологиЙ. -1988. - №5. - с. 3-9.

**66.** Токарева О.А. Расстройства чтения и письма (дислексии и дисграфии) //Хрестоматия по логопедии: В 2 тт. Т ИИ / Под ред. Л.С.Волковой и В.И.Селиверстова. -М.: Владос, 1997. - с. 456-469.

**67.** Хомская Е.Д. Нейропсихология. - М.: Изд-во МГУ, 1987. - 288 с.

**68.** Хомская Е.Д., Ефимова И.В., Будика Е.В., Ениколопова Е.В. Нейропсихология индивидуальных различий // Вестник МГУ, сер. ≪Психология≫, 1997.-281 с.

**69.** Шаховская С.Н. Проблема дисграфии: методические поиски зарубежных специалистов // Письмо и чтение: трудности обучения и коррекции. - М.:МОДЕК, 2001.-с. 230-236.

**70.** Яковлев СБ. Коррекция аграмматической дисграфии у учащихся начальних классов школы для детей с тяжёлими нарушениями речьи.

**71.** Логопедия: метод традитсии и новаторство. - М.: Изд-во Моск. псих.-сотс. института, 2003. - 336 с.

**72.** Ястребова А.В. Коррекция нарушений речьи у учащихся обшеобразователной школы: Кн. для учителя-логопеда. - М.: Просвешение, 1984. -158 с.__

## IV. Internet ma`lumotlari

1. http://www.pedagog.uz/Pedagogika muassalari portali
2. http://www.gov.uz/Nizomiy nomidagi TDPU sayti
3. http://www.google.ru/